

**SIBELIUS 4,
SIBELIUS 6 nota
muharrirlarida ishlash
masalalari**



O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
MUSIQIY OVOZ REJISSYORLIGI VA INFORMATIKA KAFEDRASI

UMUROV NODIR QOSIMOVICH

**SIBELIUS 4,
SIBELIUS 6 nota
muharrirlarida ishlash
masalalari**

O‘quv qo‘llanma

**Toshkent
2016**

O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir	–	Texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim Ro'ziqulov A.R.
Taqrizchilar	–	O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy ovoz rejissyorligi va informatika" kafedrası mudiri, dosent, texnika fanlari nomzodi Gafurova Sh.A.
	–	Toshkent axbarot texnologiyalari universiteti xuzuridagi "Dasturiy mahsulotlar va apparat-dasturiy majmualar yaratish" markaziy laboratoriya mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi Normatov I.X.

O'quv qo'llanma Sibelius nota muharriri bilan ishlash masalalariga, dasturning eng ommabop 4.0 va 6.0 versiyalarining imkoniyatlarini, taqdim etiladigan vositalarning o'xshashlik va farqli jihatlarini qiyosiy o'rganishga, ular bilan ishlash mahoratini oshirishga bag'ishlangan. Qo'llanmada nota hujjatlarini yaratishdan tortib, ularga ko'rimli ishlov berishgacha bo'lgan mavzular batafsil yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma musiqa san'ati oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining talabalari va o'quvchilariga «Musiqiy informatika va kompyuter grafikasi» fanida foydalanishlari hamda nota hujjatlari bilan bevosita ish yurituvchi mutaxassislariga mo'ljallangan.

MUNDARIJA

MUALLIFDAN	3
KIRISH	4
SIBELIUS 4, SIBELIUS 6	
Dastur bilan tanishish	5
<i>Instrumentlar paneli</i>	7
<i>Instrumentlarning siljiriladigan panellari</i>	
<i>Navigator</i>	8
<i>Nota belgilari paneli</i>	9
<i>Pleyer paneli</i>	10
<i>Miksher paneli</i>	11
<i>Xususiyatlar paneli</i>	12
ISHGA KIRISHISH	
<i>Nota hujjatini shakllantirish</i>	17
NOTA MATNINI TERISH	28
<i>Notalarni terishning uch usuli</i>	29
NOTA SHTILLARI BILAN ISHLASH	
<i>Nota shtillari paneli</i>	32
<i>Nota shtillarini teskari ag‘darish va notani bir nota qatoridan ikkinchisiga o‘tkazish</i>	
<i>Notalarning guruhlari (triol, akkordlar)</i>	36
PAUZALAR	40
CHIZIQ OB‘YEKTLARI	42
MATN OB‘YEKTLARI	43
MUSIQIY SIMVOLLAR	51
TAKTLAR KO‘RINISHI VA JOYLASHUVINI TAHRIRLASH	
AMALLARI	54
NOTA HUJJATLARINI BOSHQA FORMATLARGA – GRAFIKA, AUDIO, SIBELIUSNING BOSHQA VERSIYALARIGA O‘GIRISH (KONVERTATSIYA)	62
PARTITURALAR BILAN ISHLASH	
<i>Partiyalarni partituranidan ajratib qarash, bir necha cholg‘ularning partiyalarini partituranidan ajratib qarash va tahrirlash</i>	65
NOTA HUJJATI BILAN ISHLASHGA OID BA‘ZI TAVSIYALAR	67
DASTURNING ASOSIY BUYRUQLARI VA TEZKOR	
KLAVISHALAR	72
XULOSA	81
GLOSSARIY	84
TESTLAR	92
MASHQLAR	100
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	108

MUALLIFDAN

Ushbu o'quv qo'llanma eng ommabop nota muharrirlaridan biri hisoblanadigan Sibeliyus dasturini chuqurroq o'rganishga, dastur muhitida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan. Qo'llanmada dasturuning bugungi kunda eng keng qo'llanilayotgan versiyalari, ularning imkoniyatlari, ular taqdim etadigan vositalarning o'xshashlik va farqli jihatlari, ushbu vositalardan o'z o'rnida va samarali foydalanish sirlari batafsil yoritib berilgan.

Qo'llanmadan nota hujjatlarini yaratish, ular bilan ishlashga doir eng dolzarb mavzular o'rin olgan. Har bir mavzu mayda tafsilotlarigacha bayon etilib, har bir holatda nota matniga ishlov berish sir-asrorlari yetarlicha tushuntirilib, dastur taqdim etadigan vositalardan unumli foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

O'quv qo'llanmadagi har bir mavzu amaliy topshiriqlar bilan ta'minlangan bo'lib, ular mavzularni amaliy o'zlashtirish borasida ko'nikma va mahoratni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.


Ushbu o'quv qo'llanma musiqa san'ati oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining talabalari va o'quvchilariga dasturdan malakali foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirishlarida, musiqada zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lishlarida, nota hujjatlari bilan bevosita ishlovchi mutaxassislariga o'z kasbiy faoliyatlarida foydali bo'ladi, degan umiddamiz.

KIRISH


Musiqada axborot texnologiyalarining rivojlanishi juda keng jarayon bo'lib, turli xil dasturlar, musiqiy axborotlarni yaratish va qayta ishlash usullarini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu qo'llanma nota hujjatlari va musiqiy axborotlarni yaratish va qayta ishlash borasida yetakchi dasturlardan biri Sibelius nota muharririda ishlash masalalariga qaratilgan.

Hozirda Sibelius dasturining bir necha versiyalari mavjud. Ular bir-birini to'ldirib, ba'zi yangi funksiyalar kiritilib borilishi bilan farqlanadilar. Biz dasturning eng ko'p qo'llaniladigan versiyalari – Sibelius 4 va Sibelius 6 versiyalariga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Sibelius dasturining qarab chiqiladigan versiyalari bir-biriga o'xshash interfeysga ega:



Sibelius 4 dasturining interfeysi.




Sibelius 6 dasturining interfeysi.

Dasturning bu ikki versiyasini solishtiradigan bo‘lsak, ular funkcionalligi jihatidan ham, axborotni ovozlashtirishi jihatidan ham bir-biridan farqlanishlarga ega. Dasturning har ikkala versiyasini ingliz (original) va rus tillaridagi interfeysi mavjud bo‘lib, bu ularning foydalanuvchilar orasida keng tarqalishiga zamin yaratgan.

SIBELIUS 4, SIBELIUS 6


Dastur bilan tanishish

Sibelius dasturining eng muvaffaqiyatli chiqqan versiyasi bu – Sibelius 4 versiyasidir. Ushbu versiyada dasturning ilgari versiyalarida mavjud bo‘lgan barcha xato va kamchiliklar bartaraf etilgan. Buyruqlarning bajarilishi Sibelius 3.0 versiyasiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi, shu bilan birga Sibelius 4



versiyasida yuklanish moduli yengilroq va qulay qilib ishlangan. Shu bois Sibeliusning mazkur versiyasida nota matnini terish birmuncha tezroq amalga oshiriladi. Dasturning ilgari versiyalaridan farqli ravishda Sibelius 4 versiyasiga quyidagi yangilik va qulayliklar kiritilgan:

- *Dinamik partiyalar.* Dasturning ilgari versiyalarida partituraning partiyalari o'ziga alohida e'tibor qaratilishini talab etardi. Masalan, partituraning partiyalarni ajratib chiqarish uchun alohida papka yaratish, so'ngra ushbu papkaga partiyalarni ko'chirish lozim edi. Endilikda esa dasturning interfeysida har bir partiyani alohida oynada ko'rib chiqib, partituraning xohlagan partiyani ajratib chiqarish mumkin;
- Partitura *videoma'lumotlari* kiritish imkoniyati paydo bo'ldi;
- Nota matnini *grafik* (rasm) ko'rinishda saqlash imkoniyatiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi (*eksport*) ;



- *Qo'shimcha shriftlar.* Sibelius dasturining ilgari versiyalarida «Opus», «Inkpen» kabi shriftlar mavjud bo'lgan bo'lsa, Sibelius 4 versiyasida ularning safiga «Helsinki», «Cambria» shriftlari ham qo'shildi;
- *Chiziq ob'yektlari* (liga, dinamik chiziqlar va boshqalar) nisbatan aniq va ravshan ko'rinishga keltirildi.

Instrumentlar paneli

Nota hujjatlarini yaratish va tahrirlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng e‘tiborga molik belgilar instrumentlar paneliga joylashtirilgan. Ularni batafsilroq ko‘rib chiqaylik:



- Yangi fayl, nota hujjatini yaratish («Ctrl+N»);



- Saqlangan faylni ochish, yuklab olish («Ctrl+O»);



- Faylni saqlash («Ctrl+S»);



- Audio eksport. Nota hujjatni «wav» formatiga o‘tkazish imkoniyatini beradi.



- Nota hujjatini chop etish («Ctrl+P»);



- Oldingi buyruqni bekor qilish («Undo» – «Ctrl+Z»);



- Bekor qilingan buyruqni qayta bajarish («Redo» – «Ctrl+Y»);



- Hujjatni qarab chiqish masshtabini kattalashtirish yoki kichraytirish. Ushbu belgi bosilganda sichqoncha ko‘rsatkichi lupa ko‘rinishiga keladi. Shunda sichqonchaning o‘ng tugmasi bosilsa, hujjatning masshtabi kattalashadi, agar chap tugmasi bosilsa – masshtab kichrayadi. Ushbu belgi qayta bosilsa yoki klaviaturaning Esc tugmasi bosilsa masshtablash buyrug‘i o‘chiriladi;



- Masshtab indikatori («Ctrl+sichqoncha g‘ildiragini aylantirish» (skroll)¹ orqali qarab chiqish masshtabini o‘zgartirish mumkin);



- Tanlangan nota qatoriga diqqat-e‘tibor qaratish. Ushbu belgini bosishdan avval partituraning biror-bir nota qatorini (masalan, ovoz partiyasini) belgilab olish zarur. So‘ngra ushbu belgi bosilsa, ishchi oynada faqat siz tanlagan partiya qoladi, boshqa nota qatorlari ko‘zdan yashiriladi. Natijada terilgan notalarni sinchiklab tekshirib chiqish osonlashadi, xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash imkoniyatlari kengayadi.



- Transponirovka. Ma’lumki, ba’zi musiqa cholg‘ulari (xususan, damli cholg‘ular) o‘z tovush diapazoni va ijro tonalligiga ega bo‘ladi. Partiturada o‘z tonalligiga ega musiqa cholg‘ulari (masalan: klarnet in B, tuba in F) ishtirok etganida kompozitorlar ushbu musiqa cholg‘ularining tonalligini

¹Skroll – Sichqoncha tugmalari orasiga joylashtirilgan g‘ildirakcha.

boshqa musiqa cholg'ularining tonalligiga moslashtiradilar, yani transponirovkani amalga oshiradilar.



- Partitura va partiyalar. Nota hujjatidan alohida partiyalarni ajratib qarash yoki chop etish uchun xizmat qiladi.




- Barcha partiyalarni alohida oynalarga ajratib chiqarish, fayllarga saqlash;




- Sibelius dasturi bo'yicha ma'lumotnoma (ingliz tilida).

Instrumentlarning siljiladigan panellari²:



Sibelius 4 versiyasida.




Sibelius 6 versiyasida.

Navigator



Navigator tugmasi. «Navigatsiya»³ atamasi o'z nomi bilan ushbu belgining vazifasini ta'riflaydi. Navigator belgisi bosilsa, ishchi oynaning pastki chap burchagida navigatsiya oynasi paydo bo'ladi. Sichqoncha ko'rsatkichini navigatoridagi yorqin rangli qismiga olib borib, sichqonchani chap tugmasini bosgan holda siljiltirilsa ishchi oyna bo'yicha navigatorga mos harakatlanish amalga oshiriladi.



² Instrumentlarning siljiladigan panellari – ushbu toifa panellarni dastur oynasining xohlagan joyiga siljitish mumkin bo'lib, bunda siz ularni o'zingiz uchun qulay joyga joylashtirish yoki yopib qo'yish imkoniyatlariga ega bo'lasiz.


³ Navigatsiya – yo'l ko'rsatish.

Nota belgilari paneli



«Nota belgilari paneli» – dasturda ishlash uchun eng zarur paneldir. Ushbu tugma yoqilgan holatida ishchi oynaning pastki o‘ng burchagida nota belgilari paneli paydo bo‘ladi (tugma qayta bosilganida «Nota belgilari paneli» yopiladi). Ushbu joylashish aslo tasodifiy emas, chunki nota belgilari paneli bo‘limlarida joylashgan nota belgilari kompyuter klaviaturasining kalkulyatorida joylashgan raqamli klavishalarga moslashtirilgan.

Mazkur panel oynasining 5 ta bo‘limi mavjud (Sibelius 6 versiyasida esa 6 ta bo‘lim, uning tarkibiga yana bitta funksional bo‘lim qo‘shilgan). Har bir bo‘lim o‘ziga xos nomga ega, ulardan birortasiga o‘tish uchun F8 dan F12 gacha bo‘lgan funksional klavishalardan ham foydalanish mumkin (Sibelius 6 versiyasida esa bu bo‘limlarga o‘tish uchun F7-F12 klavishalaridan foydalaniladi):



⁴ Qavslar ichida Sibelius 6 versiyasining mos klavishalari ko‘rsatilgan.

Nota belgilari panelining pastki qismida 4 ta ovozdan birini tanlash tugmalari joylashgan. Ma'lum bir ovozga taalluqli notalar kiritilayotganida mos raqamli tugma bosiladi. Bitta nota chizig'idagi ko'povozli nota matnlarini kiritish qulayligini ta'minlash maqsadida har bir ovoz o'ziga xos rangda aks ettiriladi: 1-ovoz – ko'k, 2-ovoz – yashil, 3-ovoz – to'q sariq, 4-ovoz – binafsharang. Kompuyter klaviaturasi yordamida ma'lum bir ovozga o'tish quyidagi klavishalar orqali amalga oshiriladi: «Alt+1», «Alt+2», «Alt+3», «Alt+4».

«All» klavishasi («Alt+5») barcha ovozlarni uchun umumiylikni ta'minlaydi, ya'ni belgilab olingan ligalar, dinamik nuanslar, boshqa musiqiy belgilar partituraning nota qatoridagi barcha ovozlarga taalluqli bo'ladi.

Pleyer paneli







Pleyer paneli. Ushbu panelning ko'rinishi barcha musiqa ixlosmandlariga tanish bo'lsa-da, ayrim qo'shimcha funksiyalarga ega. Ularni batafsil qarab chiqamiz:










Sibelius 4 versiyasidagi Pleyer paneli.




Sibelius 6 versiyasidagi Pleyer paneli.

-  - Ijro etish chizig'ini nota hujjatining boshiga o'tkazish;
-  - Ijro etish chizig'ini bir takt oldinga qaytarish;
-  - Ijro etish;
-  - Stop, ijroni to'xtatish;

-  - Ijro etish chizig'ini bir takt keyinga o'tkazish;
-  - Ijro etish chizig'ini nota hujjatining oxiriga o'tkazish;
-  - Kuyni MIDI-klaviaturadan yozib olish («Flexi-Time™» funksiyasi);
-  «Jonli ijro» (Sibelius dasturi siz tergan musiqani barcha ko'rsatmalarigizga asoslanib saqlab qoladi va keyinchalik kuyni ushbu nyuanslarga asoslanib ijro etadi);
-  - Metronom;
-  - Jonli ijroni yozib olish (qizil rangli);
-  - Jonli ijroga o'girish. Ushbu funksiya ishga tushurilganida «MIDI» formatidagi tovushlar «WAVE» formatidagi tovushlarga almashtiriladi.


«Vaqt ko'rsatkichi (chizig'i)» («Time line») panelning pastki qismiga joylashtirilgan. Ijro etilish vaqtini, ijro etilayotgan takt raqamini («bar»), takt o'lchovini («beat»), ijro tempini, ijro etib berish nazorat chizig'ini ko'rsatib turadi.

Miksher paneli

 Ushbu tugma yordamida raqamli miksher pultining paneli ochiladi. Miksher paneli ikki qismga bo'linadi. Panelni ishga tushurilganida yig'ilgan ko'rinishda aks ettiriladi. Panelni yoyilgan ko'rinishga keltirish uchun panelning o'ng tomonida joylashgan ko'rsatkich ko'rinishidagi belgini bosish lozim:

Yig'ilgan ko'rinish

Yoyilgan ko'rinish



Sibelius 4 versiyasidagi miksher.




Sibelius 6 versiyasidagi miksher.

Sibelius 4 versiyasidagi panelning chap qismida ekvalayzer joylashgan. Ekvalayzer yordamida ovozlarni sozlash va boshqarish ishlari bajariladi.

- «S» («Solo»). Cholgʻuning yakka ijrochiligini taʼminlaydi;
- «M» («Mute»). Cholgʻuning tovishini oʻchiradi;

Sibelius 4 versiyasidagi panelning oʻng tomonida cholgʻularni sozlash instrumentlari: cholgʻuning tovishini, audio xaritani, plaginlarni, tovish oqimi yonalishini, panoramani, qoʻshimcha ovozlarni tanlash va boshqa instrumentlar joylashgan.

Sibelius 6 versiyasidagi miksher pulti oʻzgacha koʻrinishga ega boʻlib, 5 ta tugma orqali miksherning koʻrinishi oʻzgartiriladi . Har bir tugmani bosganingizda cholgʻularning kerakli xususiyati ochiladi. Sibelius 6 miksher panelida ekvalayzer oʻng tomonda, chogʻularni sozlash instrumentlari esa chap tomonda joylashgan.


Xususiyatlar paneli



- Ushbu tugma yoqilgan holatda boʻlganida xususiyatlar paneli ochiladi. Xususiyatlar paneli yordamida nota matnini tahrirlash va qayta ishlash amallarini bajarish mumkin.


Panel 7 ta yoyiladigan boʻlimlardan iborat. Panel boʻlimlarining nomlanishiga sichqonchaning (oʻng yoki chap) tugmasi bosilsa, tanlangan boʻlim yoyilgan

holatga o'tadi, agarda mazkur bo'lim yoyilgan holatda bo'lsa, u yig'iladi. Panel bo'limlarining har biri o'zining xususiyatlariga ega. Ularni batavsilroq qarab chiqamiz.



1. General (Bosh bo'lim). Panelning bu bo'limi yordamida nota belgilarini gorizontol («X») va vertikal («Y») joylashishini bosqarish hamda ularni ko'rinmas yoki odatdagicha (ko'rinadigan) holatga aks ettirilishini belgilash mumkin. Ushbu bo'limning yuqori qismida joriy takt haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan: nota qatori nomi, takt raqami, belgining joylashish pozitsiyasi. Ushbu bo'limda quyidagi belgilashlarni amalga oshirish mumkin:

- «**Hide**» – belgilab olingan ob'yektni yashirish;
- «**Show**» – belgilab olingan ob'yektni ko'rinadigan holatga aks ettirilish;
- «**Show in Score**» – yashirilgan nota qatorini ko'rsatish;
- «**Show in Parts**» – yashirilgan partiyani ko'rsatish;
- «**X**» va «**Y**» – belgilab olingan ob'yektning gorizontol («X») va vertikal («Y») joylashishi;
- «**Flip**» (**notani teskarisiga ag'darish**) – nota shtillarini, nota belgilarini to'g'ri (nota yozuvi qoidalariga binoan aks ettirish) yoki teskari ko'rinishga ag'darish (pastga yoki tepaga qaratish), masalan, ligalar, shtrixlar.



2. Text (Matn). Panelning ushbu bo'limi belgilab olingan matn yoki matn fragmenti bilan ishlashda, ya'ni belgilangan matn shrift parametrlarini o'zgartirish uchun qo'llaniladi. Panel bo'limining yuqori qismida matn ob'yekti nomi, masalan qo'shiqning matnosti so'zlari («Lyrics»), tanlanadi. Ushbu bo'limning keyingi qismlarida shrift garniturasini, takt o'lchovi («Size») tanlanishi, quyuq («B»), kursiv («I»), tagiga chizilgan («U») ko'rinishlarda bo'lishi belgilanishi mumkin.




3. Playback (Ijro etish). Panelning ushbu bo‘limi aranjirovka vaqtida qo‘llaniladi. Bo‘lim yordamida musiqiy kompozitsiyaning ijro etilishini sozlash mumkin, ya’ni:

- Play on pass bayroqcha-maydonlar guruhida mos raqamlar ostidagi bayroqchalar (✓) olib tashlansa, ijroda ushbu notalarning tovushi eshitilmaydi. Bu bir necha akkordli notalarni unison ijro etishda zarur bo‘ladi. Chunki unison ijrosi kompozitsiyaning umumiy sadolanishiga aks ta’sir etishi, ya’ni tovushlarning ijrosi juda zich va eshitish uchun yoqimsiz holatga kelishi mumkin. Bunday holatda, odatda, bir xil sadolanishga ega tovushlarni o‘chirib qo‘yish lozim;

- «Gliss/Rit/Accel» glissando chiziqlarini ajratish (separatsiya). «Gliss/Rit/Accel» belgilab olingan glissando effektini (glissandosiz, cholg‘uga moslashtirilgan, xromatik chiziqli, diatonik, qora yoki oq klavishalar bo‘yicha) hamda glissando effektining harakatini (chiziqli – linear, oldindan – early, kechiktirib – late) sozlashga mo‘ljallangan;


- «rit.» yoki «accel.» chiziqlarini sozlash. Musiqaning sadolanishida belgilab olingan «rit.» yoki «accel.» ko‘rsatmalarining sekinlashish yoki tezlashish («Gliss/Rit/Accel» guruhi ikkinchi qatoridagi parametrlar) qiymatlarini bevosita sozlash uchun mo‘ljallangan;

- «Trill» – trel qo‘yilgan nota guruhlarini sozlash uchun mo‘ljallangan. Trel ko‘rsatmasini belgilab, «half steps» maydonida trelni tonikasi sozlanadi; «speed» – ijro etish tezligi ko‘rsatiladi; «play straight» – ijroning ravonligi; «start on upper note» – yuqori notadan boshlanishini belgilanadi.



4. «Lines» (Chiziqlar). Panelning bu bo‘limida liga, creshendo, diminuendo, trel, glissando kabi dinamika chiziqlarining o‘lchamlari sozlanadi. Bu toifa chiziqlar

«Create»→«Line» buyrug‘i oynasi (uni kompyuter klaviaturasidagi «L» harfini bosish orqali ham ochish mumkin) ro‘yxatlarida aks ettirilgan. «X» va «Y» koordinatalardan foydalanib chiziqlarning o‘rta («Middle») hamda tugallanish («End») pozitsiyalarining vertikal va gorizontal bo‘yicha joylashishi o‘zgartiriladi. Bu esa ularning ko‘rinishi o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu amallarni sichqoncha yordamida ham bajarsa bo‘ladi. Buning uchun kerakli chiziqni (yoki uning tugallanish nuqtasini) belgilash va uni sichqonchaning chap tugmasini bosgan holda siljitish zarur.




5. «Bars» (Taktlar). Taktlarni texnik tomonlama tahrirlash. Panelning ushbu bo‘limini ishga tushurish uchun, sichqoncha yordamida tahrirlanadigan taktning belgilash zarur. Belgilangan taktlar ustida quyidagi tahrirlash amallarini bajarish mumkin:

- «Brackets» – akkolada yoki nota qatori uchun belgilangan to‘g‘ri burchakli (yoki figurali) qavslarni aks ettirish (yashirish);
- «Initial barline» – taktning boshi (chap) chizig‘ini aks ettirish (yashirish);
- «Clefs» – kalitlarni aks ettirish (yashirish);
- «Key Signature» – tonallik belgilarini aks ettirish (yashirish).
- «Split multirest» – belgilangan taktlarda multipauzalar uzilishini o‘rnatish;
- «Section End» – kompozitsiyani tugallanishi. Ushbu amal yordamida asarni tugallab, boshqa kompozitsiyani unga ulab qo‘yish mumkin.


Panel bo‘limining «Break» (ajratish) ro‘yxati:

- «No break» – ajratmasdan;
- «System Break» – tizim (sahifadagi partura qatori) bo‘yicha ajratish;
- «Page Break» – sahifa bo‘yicha ajratish (sahifani tugallash);
- «Middle of system» – taktlarni zichlashtirish (belgilangan taktlarni sahifadagi partura qatoriga zichlash);
- «Middle of page» – belgilangan taktlarni bir sahifaga zichlash.



Panel bo‘limining Pauzalar ro‘xatidan foydalanib taktlarning pauzalari ko‘rinishini (odatdagi, takrorlash, vertikal) o‘zgartirish mumkin. Sibelius 6 versiyasida ushbu amallar F11 nota belgilari paneli bo‘limiga ko‘chirilgan.


«Gap before Bar» – belgilangan takt (taktlar)dan oldin (chapda) tashlanadigan masofa.




6. «Staves» (Nota qatorlari)

Nota qatorlarining chiziqlarini sozlash:

- Nota chiziqlarining soni (1,2,3,4,5 – chiziqlar soni, tanlanadigan cholg‘u asbobiga mos nota chiziqlari);
- Nota qatorining ko‘rinishi va belgilarini kichiklashtirish («Small» – kichik);
- Cholg‘uning ishchi diapazoni («Range» – diapazon). Diapazon «Comfortable» (Qulay) va «Professional» (Professional) bo‘limlari ro‘yxatlari yordamida sozlanishi mumkin. Cholg‘uning ishchi diapazoniga to‘g‘ri kelmaydigan nota belgilari qizil rangda aks ettiriladi. Sibelius 6 versiyasida ushbu bo‘lim mavjud emas. Uning vazifasi «Instrumentlar» oynasiga ko‘chirilgan (tezkor klavisha – «I»). Barcha cholg‘ularning nota qatorlari «Instrumentlar» oynasidan tanlanadi. Shu sababli xususiyatlar panelining mazkur bo‘limiga zarurat yo‘qolgan. Bunga quyidagi rasmga aks ettirilgan «Instrumentlar» oynasidan ham ishonch hosil qilish mumkin.



7. «Notes» (Notalar)



Panelning ushbu bo‘limida notalar ustida bajariladigan amallar aks ettirilgan, masalan: notalarning akkord raqamlari aniqlanishi, nota boshchalarining ko‘rinishini o‘zgartirish, «Tuplet» triol nota guruhining tipini va guruhlanish chizig‘ini o‘zgartirish, nota pozitsiyasini sozlash va boshqalar.

Barcha siljiriladigan panellarni yopish



- Ushbu tugma yordamida instrumentlarning barcha siljiriladigan panellarining ochilgan oynalarini birvarakayiga yopish mumkin.


Quyidagi savolga javob bering:



1. Sibelius 4 va Sibelius 6 versiyalari interfeyslarining o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

ISHGA KIRISHISH

Nota hujjatini shakllantirish



Sibelius dasturida musiqa asarini terish yoki tahrirlashdan avval quyidagi variantlardan birini tanlash lozim (rasmga e’tibor bering):

«**Open recent file**» – oxirgi marta ochib qaralgan fayllardan birini ochish. Ushbu buyruq yordamida dasturga oxirgi marta ochib qaralgan nota hujjati yuklanadi. Bizning misolimizda bu – oynadagi mos ro‘yxatda aks ettirilgan «Garduni Segoh» nomli hujjat. Shuningdek, dasturga ushbu ro‘yxatda

mavjud boshqa nota hujjatini ham yuklash mumkin.

«**Open another file**» – boshqa faylni ochish. Ushbu buyruq yordamida dasturga kompyuter xotirasiga yoki boshqa axborot tashuvchi vosita (CD, DVD, fleshka va boshqa)ga yozib olingan faylni yuklash amalga oshiriladi.

«**Start new score**» – yangi nota hujjatini yaratish.


«**Browse teaching resources and worksheets**» – o‘rgatuvchi resurslar va o‘quv sahifalarni ko‘rib chiqish. Dastur o‘zida saqlangan o‘rgatuvchi resurslarni ko‘rib chiqiladi va sizga to‘g‘ri keladigan o‘rgatuvchi modullarni yoki hujjatlarni taqdim etadi.

«**Open a MIDI file**» – MIDI formatdagi faylni ochish. Agar sizda MIDI formatidagi fayl mavjud bo‘lsa, Sibelius dasturi ushbu faylni nota ko‘rinishidagi hujjatda ochib beradi. Keyinchalik ushbu hujjat bilan ishlab, unga kerakli o‘zgarishlarni kiritish mumkin.


«**Scan in printed music with PhotoScore**» – Sibelius dasturining yordamchi dasturi «FotoSkor» orqali qog‘ozda chop etilgan musiqa matnini kompyuterga skaner yordamida Sibelius formatida yozib olish mumkin. Qog‘ozga chop etilgan nota matni tiniq va toza bo‘lishi shart. FotoSkor dasturini Sibeliusning dasturiy-yuklovchi majmuasidan o‘rnatish zarur.

«**Transcribe music with AudioScore**» – Sibelius dasturining yordamchi dasturi «AudioSkor» yordamida audio fayllarni kompyuterga Sibelius formatida yozib olish mumkin. Dastur hosil qilgan nota hujjatini sinchiklab tekshirish zarur, chunki bunda notalarning joylashishida xatoliklar bo‘lishi mumkin. AudioSkor dasturi Sibeliusning dasturiy-yuklovchi majmuasidan foydalanib o‘rnatiladi.

Yangi musiqa asari ustida ishlashni boshlash uchun «Start new score» – yangi nota hujjatini yaratish buyrug‘idan foydalaniladi. Bunda yangi hujjatni yaratish oynasi taqdim etiladi. Ushbu oynaning chap tomonida tayyor maketlar namunalari (1, Manuscript Paper ro‘yxati, ya’ni orkestrlar partituralari, klavirlar va boshqalar), qog‘oz formatini tanlash ro‘yxati (2, A4, A5 va boshqalar) va oriyentatsiyasini (3, kitob yoki albom ko‘rinishida)ni tanlash mumkin. Oynaning o‘ng tomonida esa yaratiladigan hujjatning maketi (4) aks ettiriladi. Tayyor maketlardan birini tanlab keyingi qadamga o‘tish mumkin.



Agarda tayyor maketlar namunalari sizni qoniqtirmasa, bo‘sh (toza) sahifa maketi (5, «Blank»)ni tanlash va keyingi qadamga o‘tish mumkin. Ushbu holda dastur sizga musiqa asarida ishtirok etadigan cholg‘ularni tanlashni taklif etadi, bunda «Da (Ha)» tugmasi bosilsa, mos oynaga o‘tiladi. Ushbu oyna yaratilayotgan nota hujjati uchun cholg‘ularni tanlash oynasi bo‘lib, «Instruments» deb nomlanadi va u quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi:



Ushbu oynani «New Score» oynasidagi «Ghange Instruments...» tugmasini bosish orqali ham ochish mumkin.

Cholg'ularni tanlash oynasining yuqori chap qismida cholg'ularning tarkibiy («Choose from») ro'yxati joylashgan. Ko'p hollarda «All instruments» (barcha cholg'ular) variantini (1) tanlash maqsadga muvofiq. Ushbu variant kerakli cholg'uni tanlash imkoniyatini kengaytirib, ayniqsa murakkab partituralarni shakllantirishda juda qo'l keladi.

Cholg'ularni tanlash oynasining pastki chap ro'yxatida cholg'ularning oilalari keltirilgan, ya'ni: yog'och-damli, mis-damli, urma-zarbli, gitaralar, ovozlar, klavishali, torli va boshqa musiqa cholg'ulari. Ushbu ro'yxatdan cholg'ular oilasining kerakli varianti (2) tanlanadi.

Cholg'ularni tanlash oynasining o'rta qismida cholg'ularning tanlangan oilasiga taaluqli cholg'ular ro'yxati paydo bo'ladi. Bizning misolimizda bu klavishali («Keyboards») cholg'ular oilasiga mansub cholg'ulardir. Kerakli cholg'uni yaratilayotgan asarga kiritish uchun cholg'u (masalan, fortepiano («Piano») cholg'usi) belgilanadi (3) va «**Add to score**» (ob'yektni nota hujjatiga qo'shish) tugmasi (4) bosiladi. Ushbu buyruqni bir necha cholg'larni belgilab ham amalga oshirish mumkin.


Cholg'ularni tanlash oynasining o'ng qismidagi ro'yxatda tanlangan cholg'ular ketma-ket, ya'ni partitura ketma-ketligi bo'yicha joylashtirilib aks ettiriladi. Cholg'ularni tanlash oynasining o'ng va o'rtadagi ro'yxatlari oralig'ida cholg'ularni tanlash va ularning ketma-ketligini sozlash tugmalari joylashgan:

«**Delete from score**» – o'ng ro'yxatda belgilangan cholg'u (cholg'ular)ni yaratilayotgan nota hujjati cholg'ulari tarkibidan chiqarib tashlash. Bunda dastlab o'ng ro'yxatdan noto'g'ri tanlangan cholg'ular belgilab olinadi, so'ngra (5) tugmasi bosiladi.

«**Move**» (o'zgartirish, harakatlantirish). Ushbu tugmalar yordamida o'ng ro'yxatda belgilangan cholg'ularni ro'yxat ketma-ketligi bo'yicha yuqoriga («**Up**») yoki pastga («**Down**») siljitish mumkin (6).


«**Extra staff**» (qo‘shimcha nota qatori). Ushbu buyruq yordamida belgilangan cholg‘ularning nota qatoriga qo‘shimcha nota qatorlarini qo‘shish mumkin: «**Above**» nota qatorining tepasidan, «**Below**» – pastidan. Nota hujjati uchun tanlangan cholg‘ular ro‘yxatidan kerakli cholg‘ularni belgilab, «**Above**» yoki «**Below**» (7) tugmalaridan biri bosilsa, tanlangan cholg‘ularga qo‘shimcha nota qatorlari hosil qilinadi va ular ro‘yxatda aks ettiriladi.

«**Small staff**» (nota qatori va nota yozuvlarini kichraytirish) (8). Ushbu buyruq yordamida nota qatorini nisbatan kichikroq ko‘rinishga keltirish mumkin. Bunda kerakli cholg‘u (cholg‘ular) belgilab olinadi va «Small staff» maydoniga bayroqcha o‘rnatiladi. So‘ngra «OK» tugmasi bosilsa, «Small staff» toifasidagi nota qatorlari boshqa nota qatorlariga nisbatan kichikroq ko‘rinishga ega bo‘ladi.




Rasmdan ko‘rinib turibdiki, birinchi nota qatorining o‘lchamlari boshqa nota qatorlarining o‘lchamlariga nisbatan kichikroq.

Yaratilayotgan nota hujjati uchun kerakli cholgʻular tanlab boʻlinganidan soʻng «Next» (keyingi qadamga) tugmasi bosilsa, nota hujjatining stili va yozuv shriftlarini tanlash oynasiga oʻtiladi:




«Unchanged» – oʻzgarmaydigan, yaʼni nota belgilarini terishda qoʻllaniladigan boshlangʻich, meʼyoriy stil. Agar boshqacha stil tanlansa, nota belgilari va atamalarning shrifti ham mos tarzda oʻzgaradi. Nota hujjati stili «House Style» roʻyxati variantlaridan birini tanlash orqali oʻzgartiriladi. Nota hujjatini yaratib boʻlgandan soʻng ham hujjat stilini oʻzgartirish mumkin. Buning uchun «House Style» menyusida «Import House Style...» buyrugʻi yordamida taqdim etiladigan oynada kerakli stil tanlanishi va u taʼsir etadigan obʼyektlar koʻrsatilishi mumkin (rasmga qarang). Masalan, «Jazz inkpen2» stili tanlanib, «OK» tugmasi bosilsa, nota hujjati quyidagi rasmda keltirilganidek koʻrinishda taqdim etiladi:




Rasmdan ko‘rinib turibdiki, nota hujjatining stili (shriftlar garniturasini, nota kalitlari ko‘rinishi) jaz stiliga mos tarzda o‘zgargan.

Agar nota hujjati stilini o‘zgartirishga hojat bo‘lmasa, «Next» tugmasini bosish va keyingi oynaga o‘tish mumkin. Bu oynada nota asarining takt o‘lchovi, tempi va ijro tezligi tanlanadi.

«**Time Signature**» – asarning boshlang‘ich takt o‘lchovini belgilash. Quyida keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, eng keng qo‘llaniladigan takt o‘lchovlari «Time Signature» guruhi variantlarida mavjud. Kerakli takt o‘lchovini belgilash uchun uning chap yonida joylashgan maydonga marker o‘rnatishning o‘zi kifoya. Agarda boshqacha takt o‘lchovini belgilashga zaruriyat tug‘ilsa, «**Other**» (boshqa) yozuvi yonidagi maydonga marker o‘rnatiladi. Bunda qo‘shimcha o‘lchamni o‘rnatish sonli maydonlari faollashadi (ko‘rsatkichga e‘tibor qarating). Ushbu maydonlardagi sonli qiymatlarni o‘zgartirish evaziga kerakli boshlang‘ich takt o‘lchovi o‘rnatiladi.




«**Beam and Reset Groups**» – (guruhlash va ajratish). Ushbu tugma bosilganda har bir kichikroq cho‘zimdagi notalarni guruhlarga ajratish oynasi ochiladi. Masalan, 4/4 takt o‘lchovida yoziladigan kichikroq cho‘zimdagi notalar ma’lum bir tuzilish asosida guruhlarnadi. Sakkiztalik notalarning guruhlaniishi «**Group 8 ths (quavers) as:**» maydonida ko‘rsatilganidek «4,4», ya’ni har to‘rtta sakkiztalik nota bir guruhga birlashtiriladi. Agarda, biz ushbu maydonga «2,2,2,2» yozuvini kiritsak, har bir guruh ikkitadan sakkiztalik nota cho‘zimga teng bo‘lishiga erishamiz.



Keyinchalik sakkiztalik notalar yozilganida, ular avtomatik ravishda ikkitalik guruhlarga birlashadi. Quyidagi misol yordamida sakkiztalik notalarning turli xil guruhlanishlarini (4,4 – 1-takt, 4,2,2 – 2-takt, 2,2,2,2 – 3-takt va 1,2,1,1,2,1 – 4-takt) ko‘rish mumkin:




«**Pick-up (Upbeat) Bar**» guruhi «**Start with bar of length**» (taktoldi, zatakt, boshlang‘ich takt o‘lchovi) maydoniga bayroqcha o‘rnatish orqali taktoldi o‘lchovini ko‘rsatish mumkin. Bunda asar taktoldidan boshlanishi, ya’ni birinchi taktga mos keladigan o‘lchov biror cho‘zimdagi notani yoki notalarni ketma-ket tanlash orqali o‘rnatiladi. Keltirilgan misolda ko‘rinib turganidek, takt o‘lchovi 4/4 bo‘lsa ham boshlang‘ich takt 1/8 takt o‘lchovi bilan boshlanadi.



«**Tempo**» guruhi «**Tempo text**» (Temp matni) ro‘yxatidan musiqa asarining «Temp» ko‘rsatmasi (masalan: Allegro, Adagio, Moderato va boshqalar) tanlanadi. Ushbu ro‘yxatda temp ko‘rsatmalarining eng asosiylari mavjud. Agarda ro‘yxatdan kerakli temp ko‘rsatmasi topilmasa, uni klaviaturadan kiritib, yozib qo‘yish ham mumkin.

«**Metronome mark**» – (metronom belgisi, ijro sur‘ati, tezligi). Ushbu maydonga bayroqcha o‘rnatish orqali metronom ishga tushiriladi hamda asarning ijro tezligini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Albatta, «Temp» ko‘rsatmasi qo‘yilsa, asarning ijrosi «Temp» ko‘rsatmasiga mos keluvchi o‘rtacha tezlikda sadolantiriladi. Biroq, ijro tezligini oshirish yoki sekinlashtirish zaruriyati tug‘ilishi mumkin. Bunday hollarda metronom yoqiladi («Metronome mark» yozuvi yoniga bayroqcha o‘rnatiladi) va tanlangan notaning (masalan, choraktalik nota) tezligi ko‘rsatiladi (masalan, 120).

Asarning takt o'lovchi va tempi tanlaganidan so'ng Next (keyingi qadamga) tugmasini bosish orqali «**Key Signature**» (tonallik) nomli oynaga o'tiladi. Ushbu oynada asarning tonallik asosi (Major yoki Minor)ni (1) hamda mos (diezli yoki bemolli) ro'yxatlardan (2) kerakli sondagi kalitorti belgilari variantini tanlash mumkin:




Atonallikni o'rnatish qoidalarini. Ba'zi asarlarning tonalligi (tezkor klavisha – «K») atonal, ya'ni musiqa asarida ishtirok etadigan cholg'ularning tonalligi har xil bo'lishi mumkin. Atonallik vaziyatlarida, nota hujjati shakillantirilganidan so'ng, boshqa tonallikda yoziladigan cholg'uning nota qatori belgilanadi va «Create» menyusidan «Key Signature» buyrug'i (tezkor klavisha – «K») chaqiriladi. Bunda tonallikni sozlash oynasi ochiladi, bu oynada cholg'uga mos keluvchi tonallikni tanlab, «One staff only» (faqat tanlangan nota qatori uchun) maydoniga bayroqcha o'rnatiladi, so'ngra «OK» tugmasi bosiladi (rasmga qarang):



Ko'rinib turganidek, har bir nota qatori o'z tonalligiga ega bo'ladi.

Tonallik tanlab bo‘lganidan so‘ng «Next» (keyingi qadamga) tugmasini bosish orqali «**Score info**» (asar haqida ma‘lumotlar) nomli oynaga o‘tiladi. Mazkur oynada taqdim etiladigan maydonlarga quyidagi ma‘lumotlarni kiritish mumkin: asarning nomi (1), musiqa muallifining ismi-sharifi (2), shoir yoki qo‘shiq so‘zlarining muallifi (3), mualliflik huquqi haqidagi ma‘lumotlar (4), titul varag‘i mavjudligini belgilash (5), asar haqida boshqa qo‘shimcha ma‘lumotlar (6).

Barcha kerakli ma‘lumotlar kiritib bo‘linganidan so‘ng «Finish» (Yakunlash) tugmasi bosiladi. Bunda yangi nota hujjatini shakllantirish oynasi yopilib, dasturning ishchi maydonida musiqa hujjatining shakllantirilgan tuzilishi ishga kirishish uchun tayyor ko‘rinishda aks ettiriladi.





Endi musiqa asarining nota matnini terishga kirishish mumkin bo‘ladi!

1-mashqni bajaring .

NOTA MATNINI TERISH

Dasturda nota matnini terish katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. «**Create**» menyusida buyruqlarini qanchalik batafsil bilish esa ishni yanada yengillashtiradi va olinadigan natija o‘z sifatini bilan kishini zavqlantiradi. «Create» menyusida partitura yozuvi uchun zaruriy elementlarni qo‘yish, ularga kerakli jilo va bezaklarni o‘rnatish, tahrirlashga mo‘ljallangan buyruqlar joylashgan. Nota hujjatining maketi yaratib bo‘linganidan so‘ng cholg‘ularning kalitlarini va tonalligini yana bir marta ko‘zdan kechirib chiqish lozim. Agarda ba’zi cholg‘ular kaliti yoki tonalligini o‘zgartirish zarurati bo‘lsa, ularni nota terishni boshlashdan avval o‘zgartirgan ma’qul. Chunki dastur kalit va tonallikni o‘zgartirish bilan birga terilgan notalarni ham avtomatik ravishda transpozitsiya qiladi. Bu esa terib bo‘lingan notalarni qaytadan tekshrib, ularni qo‘shimcha tahrirlab chiqishni talab etadi. Kalit, takt o‘lchovi va tonalliklarni almashtirish buyruqlari dasturning Create menyusida joylashgan: «**Clef**» (kalit), «**Time signature**» (takt o‘lchovi), «**Key signature**» – (tonallik). Bu buyruqlar sichqonchanning kontekst menyusida ham mavjud. Ushbu maqsadda quyidagi tezkor klavishalardan ham foydalanish mumkin:


Q – kalit,


T – takt o‘lchovi

K – tonallik



Asarning nomlanishini, tempini, kompozitori va qo‘shiq matni muallifining ismi-shariflarini, cholg‘ularning nomlarini ham tahrirlash mumkin. Buning uchun

tahrirtalab matn sichqoncha yordamida faollashtirilishi, ya'ni ushbu matn yozuviga sichqonsha ko'rsatkichi olib borilishi va chap tugmasini ikki marta tezkor bosish amalga oshirilishi lozim. Shu tariqa matn yozuvida xuddi Word kabi matn muharrirlaridagidek kursor (rasmga qarang (1)) paydo bo'ladi. Undan foydalanib yozuvga kerakli o'gartirishlarni kiritish, undagi xatolarni to'g'rilash yoki yozuvni butunlay yangi yozuvga o'zgartirish mumkin. Dasturning ishchi oynasining yuqori o'ng burchagida, yugorida aytib o'tilganidek, siljiriladigan «Xususiyatlar» paneli joylashgan. Xususiyatlar panelida matn bilan ishlashga mo'ljallangan «Text» (Matn) bo'limini (2) ochish lozim. Agarda panel yopilgan bo'lsa, uni «Instrumentlar paneli»dagi  belgini (3) bosish orqali ochish mumkin (ushbu maqsadda «Window» menyusining mos buyrug'idan ham foydalanish mumkin):



Shu tariqa yaratilayotgan nota hujjatining maketi qayta tahrirlanadi va nota matnini terishga kirishish uchun zamin hozirlanadi.

Notalarni terishning uch usuli




Notalarni tarishda, yuqorida batafsil qarab chiqilgan «Nota belgilari paneli»dan unumli foydalanish talab etiladi. «Nota belgilari paneli»ning instrumentlariga mos tugmalar klaviaturaning kalkulyatorida joylashgan raqamli klavishalarga to'g'ri keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu panel klaviaturaning o'ng tomonidan joy olgan. Shuning uchun «Nota belgilari paneli»ni ham dasturning ishchi oynasini o'ng tomoniga joylashtirgan ma'qul. Ana shunda hech qanaqa qiyinchiliksiz kompyuterning raqamli klaviaturasidan foydalanish va ish unumdorligini birmuncha oshirish mumkin.

Nota matnini terishning uch usuli mavjud. Ulardan foydalanishda quyidagi amallar ketma-ketliklarini bajarish lozim bo'ladi.

1-usul: nota belgilarini sichqoncha yordamida terish:

- 1) sichqonchaning ko'rsatkichi kerakli nota belgisi ustiga olib boriladi;
- 2) nota belgisiga sichqonchaning chap tugmasi bosilib, belgi faollashtiriladi:



- 3) sichqoncha ko'rsatkichi nota qatorining kerakli joyiga olib boriladi;
- 4) sichqonchaning chap tugmasi bosilsa, nota qatorida tanlangan nota belgisi paydo bo'ladi:




1-usul bilan bajariladigan harakatlar algoritmi kamida 4 ta amalni bajarishni talab etadi.

2-usul: notalarni kompyuter klaviaturasi yordamida terish:

- 1) sichqoncha bilan nota qatoridagi kerakli taktning pauzasi belgilanadi:



- 2) klaviaturaning kalkulyatorida mos raqamli klavisha bosiladi, masalan: 3 – sakkiztalik nota, 4 – choraktalik nota va hokazo;




Sibelius dasturidagi panelda sakkiztalik nota belgilanadi

Kompyuter klaviaturasida bosilgan klavisha («3»)

3) klaviaturaning klavishalarini notalarni harfiy ifodalash tizimiga asoslanib bosish (A, B, C, D, E, F, G). Ushbu amallarni bajarish natijasida tanlangan klavishalarga mos nota belgilari joriy nota qatorida paydo bo‘lib, nota matni ketma-ketligini hosil qiladi:



2-usul algoritmidan ko‘rinib turibdiki, bunda kamida 3 ta amalni bajarish zarur. Agar terilgan nota belgisi bir oktava yuqoriga yoki pastga yozilishi kerak bo‘lsa, «Ctrl+↑» tezkor klavishalar kombinatsiyasi yordamida notani bir oktava yuqoriga ko‘tarish, «Ctrl+↓» tezkor klavishalar kombinatsiyasi yordamida esa – bir oktava pastga tushirish mumkin. Agar notani sekunda yoki boshqa intervalga o‘zgartirish zarur bo‘lsa, klaviaturaning boshqaruv klavishalaridan  foydalanib notani kerakli intervalga siljitish lozim.

3-usul: notalarni sichqoncha va klaviatura yordamida terish:

- 1) boshlang‘ich nota sichqoncha yordamida qo‘yiladi;
- 2) kompyuter klaviaturasidagi «Esc» klavishasini (klaviaturaning yuqori chap tomonida joylashgan) bosib, sichqoncha faol holatdan chiqariladi⁵;

⁵ Sichqonchani faol holatdan chiqarish – Sibelius dasturida ishlayotganda, sichqonchanning ko‘rsatkichiga e‘tibor qarating – har bir funksional holatda u o‘ziga hos rangga ega bo‘ladi. Masalan, sichqoncha yordamida nota terish rejimida birinchi ovozga taalluqli nota tanlaganida sichqonchanning ko‘rsatkichi ko‘k rang (boshqa ovozlarga taalluqli notalar uchun o‘sha ovozga xos rang)da aks ettiriladi. Aks holda, ya‘ni sichqoncha yordamida nota terish bajarilmayotgan rejimda uni ko‘rsatkichining rangi oq bo‘ladi. Bunday holat sichqonchanning nafaol holati deyiladi.

3) «R» (Repeat – qaytarish) klavisha bosilsa, taktning navbatdagi hissasida avvalgi notaning dublikati paydo bo‘ladi, ya’ni nota qaytadan kiritiladi;



4) klaviaturaning boshqaruv klavishalaridan foydalanib, notalar kerakli intervalga siljiriladi.

Shu tariqa musiqa asarining nota matni yuqorida keltirilgan amallarni qayta-qayta bajarish natijasida terib chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan usullarning ma’lum bittasidan foydalanish zarur, degan fikrdan yiroqmiz. Yaxshisi, vaziyatga qarab, ularning har uchalarini o‘z o‘rnida qo‘llab, nota matnini terish nisbatan samaraliroq bo‘ladi. Oxir-oqibat ham klaviaturada, ham sichqoncha yordamida nota matnini terish ko‘nikmalariga ega bo‘lamiz.



1. *2-mashqni bajaring.*

2. *Quyidagi jadvalni to‘ldiring:*


Bilaman	Bildim	Bilmoqchiman
1.		
2.		


NOTA SHTILLARI BILAN ISHLASH





Nota shtillari bilan ishlash uchun «Nota belgilari paneli»ning «Guruhlanish/Tremolo», ya’ni notalarni guruhlarga ajratadigan (birlashtiradigan) va tremolo belgilarini qo‘yadigan bo‘limiga o‘tish zarur. Ushbu bo‘limni Sibelius 4 versiyasida – «F10» tezkor klavisha, Sibelius 6 versiyasida – «F9» klavishadan foydalanib yoki rasmda ko‘rsatilganidek «Nota shtillari guruhlanishi/Tremolo» tugmasini bosish orqali ham ochish mumkin.


Guruhlanish bo‘limiga o‘tib, notalarni kerakli tuzilishda guruhlarga birlashtirish, guruhlardan ajratib chiqarish, guruhlardagi notalarni alohida-alohida notalarga ajratish hamda tremolalar qo‘yish va ularni olib tashlash mumkin. Nota shtillari bilan bajariladigan amallarni batafsilroq ko‘rib chiqaylik.


 – har xil cho‘zinga ega bo‘lgan notalarning (masalan: sakkiztalik va o‘n oltitalik notalar) shtillarini birlashtirish. Ushbu amalni bajarish uchun nota matnidagi bir-biri bilan birlashtiriladigan nota guruhlari belgilanadi. Nota guruhlari belgilash uchun birlashtiriladigan notalardan birinchisi belgilanadi, so‘ngra «Shift» klavishasini bosib turgan holda shichqoncha yordamida oxirgi nota belgilanadi (1), ushbu maqsadda klavituraning boshqaruv klavishalaridan ham foydalanish mumkin. Yon tarafdagi rasmda ko‘rsatilgan instrumentni bosish natijasida belgilab olingan guruhlarni birlashtirishga erishiladi (2).




 – guruhlardagi notalarni alohida-alohida notalarga ajratish. Ushbu amalni bajarish uchun nota matnida alohida-alohida notalarga ajratiladigan nota guruhlari belgilanadi. Nota guruhlari belgilash uchun alohida-alohida notalarga ajratiladigan notalardan birinchisi belgilanadi, so‘ngra «Shift» klavishasini bosib turgan holda shichqoncha yordamida oxirgi nota belgilanadi (1). Rasmda ko‘rsatilgan instrumentni bosish natijasida belgilab olingan guruhlardagi notalar alohida-alohida notalarga ajratiladi (2).




 – guruhlashgan notalarni chap tarafidan ajratish. Nota guruhidagi chapdan ajratiladigan nota belgilanadi (1). Yon tarafdagi rasmda ko‘rsatilgan instrumentni bosish evaziga nota guruhi belgilab olingan notaga nisbatan chap tarafidan ajratiladi (2).



 – guruhlarni umumiy guruhga birlashtirish. Ushbu amalni bajarish uchun nota matnidagi bir-biri bilan birlashtiriladigan nota guruhlari belgilanadi. Nota guruhlari belgilash uchun birlashtiriladigan notalardan birinchisi belgilanadi, so‘ngra «Shift» klavishasini bosib turgan holda shichqoncha

yordamida oxirgi nota belgilanadi (1). Yon tarafdagi rasmda ko‘rsatilgan instrumentni bosish evaziga guruhlar birlashtiriladi (2).




– guruhlashgan notalarni o‘ng tarafidan ajratish. Nota guruhidagi o‘ng tarafidan ajratiladigan nota belgilanadi (1). Yon tarafdagi rasmda ko‘rsatilgan instrumentni bosish evaziga nota guruhi belgilab olingan notaga nisbatan o‘ng tarafidan ajratiladi (2).



– rasmda ko‘rsatilgan instrumentlar nota shtillariga tremolo belgisini qo‘yish uchun mo‘ljallangan. Nota shtiliga tremolo belgisini qo‘yish uchun ushbu nota belgilanadi va kerakli tremolo tasvirlangan instrument bosiladi. Quyidagi rasmda, nota bo‘linishining o‘sib borishi tartibida tremologa misollar keltirilgan:




– tremoloning guruhlanishi. Nota matnidagi tremologa guruhlanayotgan notalardan birinchisi belgilanadi va kerakli tremolo instrumenti bosiladi (1). So‘ng tremologa guruhlash instrumenti bosilsa, ikki ketme-ket nota tremolo guruhiga birlashadi (2).




Aytib o‘tish joizki, notalarni tremolo guruhiga birlashtirishda nota cho‘zimini bir o‘lchov kichik notalarga mo‘ljal olish kerak bo‘ladi. Masalan, yarimtalik cho‘zimli notalar tremolo guruhini (2) hosil qilish uchun dastlab choraktalik cho‘zimga ega notalar (1) bilan ishlash zarur. Chunki ikkita choraktalik nota bitta yarimtalik notaga to‘g‘ri keladi. Tremolo guruhlanishi esa bitta belgi hisobiga ifodalanadi.

Biz Sibelius 4 versiyasi «Nota belgilari paneli»ning «Guruhlanish/Tremolo» bo‘limi instrumentlarini ko‘rib chiqdik. Biroq, Sibelius dasturining keyingi versiyalarida ushbu bo‘lim kengaytirilgan.




Sibelius 6 versiyasida nota shtillari bilan ishlash instrumentlari safiga yana uchta instrument qo‘shilgan. Ushbu qo‘shimcha instrumentlar dasturning imkoniyatlarini kengaytiradi va zamonaviy nota matnlarini terishda ancha qo‘l keladi. Zamonaviy nota yozuvida juda ko‘p naqshlar ishlatiladi. Aynan shu naqshlarni yozish uchun ushbu instrumentlar juda asqotadi. Ularni qarab chiqamiz.




– notalar orasidagi pauzalarni guruhlarga birlashtirish. Ushbu instrumentdan tayyor nota guruhlari bilan ishlashda foydalaniladi. Nota guruhlari orasida pauza bo‘lsa, pauza belgilab olinadi va  belgisi mavjud instrument bosilsa, notalar va pauza bitta guruhga birlashtiriladi. Ko‘rinib turibdiki, notalar va pauza guruhi boshqacharoq ko‘rinishga ega bo‘ladi, ya‘ni guruhga birlashgan notalarning shtillari birmuncha uzayadi (rasmga qarang):




Notalar va pauza birlashgan nota guruhini belgilab,  belgi mavjud instrument bosilsa, rasmda ko‘rsatilganidek ikki nota va pauza guruhidagi pauzaning tepasida qisqartirilgan nota shtili hosil bo‘ladi. Bu shtil yozilmagan notaning joyini ko‘rsatadi.




– ushbu instrumentlar yordamida nota shtillarini vyeersimon (yelpig‘ichsimon) ko‘rinishda aks ettirish mumkin. Buning uchun terilgan notalar guruhi belgilanadi va kerakli instrument bosiladi. Quyidagi misolda nota shtillarining turli xil vyeersimon ko‘rinishlari



Ko‘rinib turganidek, vyeersimon nota guruhlari bir-biridan farq qiladi:

ikkinchi guruhda vyeersimon chiziqlar qarama-qarshi turibdi, uchunchisida esa vyeersimon chiziqlar o'ng tomonga uzluksiz ko'payib boradi. Qarama-qarshi vyeersimon chiziqlarni hosil qilish uchun ikkinchi guruhning ikkinchi qismidagi birinchi notani belgilash va  belgi mavjud instrumentni bosish lozim.

Nota shtillarini teskari ag'darish va notani bir nota qatoridan ikkinchisiga o'tkazish



Nota shtilini teskari ag'darish uchun nota belgilab olinadi va xususiyatlar panelining «General» bo'limidagi «Flip» maydoniga bayroqcha o'rnatiladi. Natijada notaning shtili teskari ag'dariladi. Ushbu amalni tezkor klavishalar yordamida ham bajarish mumkin, buning uchun nota belgilanadi va «X» («U») klavishasi bosiladi.

Fortepianoda ijro o'ng qo'ldan chap qo'lga yoki teskarisiga o'tishi mumkin. Boshqacha aytganda, notalarni bir nota qatoridan ikkinchisiga o'tkazish uchun «Ctrl+Shift+↑» («Ctrl+Shift+↓») klavishalar kombinatsiyalaridan foydalaniladi (↑ – pastki nota qatoridan yuqoridagiga, ↓ – yuqoridagi nota qatoridan pastkisiga).



Bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tib ijro etiladigan taktlardagi ba'zi nota qatorlarida pauzalar qolishi mumkin (rasmga qarang). Ushbu pauzalarni belgilab, «Delete» tugmasi bosilsa, ular yashirilgan holatga o'tadi.

Notalarning guruhlari (triol, akkordlar)

Ko'p holatlarda musiqa matnlarida «triol» deb nomlanuvchi uchtalik nota guruhlari uchraydi. Triollarni hosil qilish uchun bo'lajak triol guruhining birinchi



notasi kiritiladi (1) (notaning o‘rniga pauza ham qo‘yish mumkin). Triol guruhi qaysi cho‘zimda bo‘lishiga bog‘liq tarzda birinchi nota cho‘zimi tanlanadi. Masalan, sakkiztalik triol guruhida birinchi nota sakkiztalik, choraktalik triol guruhida – choraktalik nota va hokazo bo‘lishi zarur. Birinchi nota kiritilganidan so‘ng «Ctrl+3» (2) tezkor klavishalar kombinatsiyasi bosilsa, belgilangan nota ustida triol guruhi chegaralari chizig‘i va raqami hamda qo‘shimcha pauzalar paydo bo‘ladi (rasmga qarang):



3-taktda ko‘rsatilganidek triol guruhidagi pauzalar bo‘lajak notalarning o‘rnini to‘ldirib turadi (3). 4-taktda esa barcha notalar terilgan bo‘lib, triol guruhi hosil qilingan. Shunda triolning chegara chiziqlari avtomatik ravishda yo‘qoladi (choraktalik va undan katta cho‘zimlardagi triol guruhlari bundan mustasno) va faqatgina raqamli ko‘rsatkich saqlanib qoladi (4).

Hosil qilinadigan triollar guruhlarining xiliga qarab quyidagi tezkor klavishalar kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin: «Ctrl+2» – duol; «Ctrl+3» – triol; «Ctrl+4» – kvartol; «Ctrl+5» – kvintol; «Ctrl+6» – sekstol va hokazo.

Ammo, ba‘zi triol guruhlari 10 va undan ortiq notalardan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday triol guruhlarini hosil qilish quyidagicha amalga oshiriladi: guruhning birinchi notasi kiritiladi (1); «Create» menyusiga kirib (2), «Tuplet» buyrug‘i tanlanadi (3); taqdim etiladigan oynadagi ma‘lumot kiritish maydoniga bo‘lajak guruhning notalari soni kiritiladi (masalan, 12) va «OK» tugmasi bosiladi. Shunda talab etilgan triol guruhi hosil bo‘ladi (4). «Tuplet» buyrug‘i oynasida triol guruhining chegaralarini va raqamini kerakli shaklda aks ettirilishini ham sozlash mumkin.




Triol nota guruhini sozlash ishlarini bajarish uchun xususiyatlar panelidagi «Notes» (Notalar) bo‘limidan foydalanish mumkin (1). Ushbu bo‘limning pastki qismida triollarni sozlashga mo‘ljallangan ro‘yxatlar mavjud (Triplet, 2). Chap tomondagi ro‘yxat yordamida belgilab olingan triol guruhining raqamini, nota belgilari bilan ifodalanishini ko‘rsatish yoki yashirish mumkin. O‘ng tomondagi ro‘yxat yordamida esa triol guruhining chegara chiziqlarini ko‘rsatish yoki yashirish mumkin.

Triol guruhlarining chegara chiziqlarini notalarning tepasidan pastki tarafga tushurish yoki pastidan tepa tarafiga ko‘tarish uchun chegara chiziqlari belgilab olinadi (1) va kompyuter klaviaturasidagi «X» («Ч») klavisha bosiladi (2). Natijada triol guruhining chegara chiziqlari o‘z o‘rnini tepadan-pastga yoki pastdan-tepaga o‘zgartiradi.



Triol guruhlari ustida amallarni bajarishda notalarning tarkibiga ahamiyat berish lozim, chunki bir triol guruhida har xil cho‘zimdagi notalar ishtirok etishi mumkin (rasmga qarang):



Rasmda ko‘rsatilganidek, birinchi taktda notalarning pauzalari qo‘yilgan (o‘n oltitalik, sakkiztalik, choraktalik pauzalar). Ikkinchi taktda esa triol guruhlari hosil

qilingan (pauzalardan iborat triol guruhlari). Uchinchi taktda esa turli cho‘zimdagi notalarning har xil triol guruhlari birlashishining ba’zi variantlari namoyish etilgan.


Akkordlar (frans. *accorde* – rozilik, kelishuv), musiqada – har xil balandlikka ega bo‘lgan tovushlarning hamohangligi, ularning uyg‘unligi. Musiqa

Notes	Create	Play	Layout	House Style	Plug-ins	Window	Help
Input Notes				N		9th Above	9
Re-input Pitches				Ctrl+Shift+I		8ve Above	8
Flexi-time Input				Ctrl+Shift+F		7th Above	7
Flexi-time Options...				Ctrl+Shift+O		6th Above	6
Arrange...				Ctrl+Shift+V		5th Above	5
Edit Arrange Styles...						4th Above	4
Transpose...				Shift+T		3rd Above	3
Transposing Score				Ctrl+Shift+T		2nd Above	2
						Unison	1
Add Interval						2nd Below	Shift+2
Add Pitch						3rd Below	Shift+3
Cross-Staff Notes						4th Below	Shift+4
Respell Accidental						5th Below	Shift+5
						6th Below	Shift+6
						7th Below	Shift+7
						8ve Below	Shift+8
						9th Below	Shift+9

asarlari akkordlar asosan tersiyalar bo‘yicha joylashadi. Akkordlarning uchtovushlik, septakkord, nonakkord va boshqa ko‘rinishlari ko‘p uchraydi.

Sibelius dasturida akkordlarni hosil qilish unchalik qiyin emas. Akkordlar hosil qilishning asosiy variantlari «Notes» menyusining «Add

interval» buyrug‘idan o‘rin olgan. Ular ochiladigan menyu-ro‘xat tarzida tepadan pastga qarab kamayib borish tartibida keltirilgan. Menyu-ro‘xatning o‘rtasida unison joylashgan. Menyu-ro‘xatning tezkor klavishalari ham keltirilgan. Kompyuter klaviaturasining yuqori qismida joylashgan 1 dan 9 gacha raqamlar yordamida belgilab olingan nota uchun akkordlar hosil qilinadi. Masalan, «1» – unison, «2» – sekunda, «3» – tersiya, «4» – kvarta va hokazo (1). Belgilab olingan nota uchun pastdan akkord intervallarini qo‘shish uchun raqamli klavishalar bilan birgalikda «Shift» klavishasini ham bosish lozim: «Shift+2» – sekunda, «Shift+3» – tersiya, «Shift+4» – kvarta va hokazo (2) (rasmga qarang):



1. 3-mashqni bajaring.


PAUZALAR


Sibelius dasturida ma'lum cho'zimdagi nota kiritilganida taktning qolgan qismi takt o'lchoviga muvofiq avtomatik tarzda pauzalar bilan to'ldiriladi (rasmga qarang):



Agarda zarurat bo'lsa, pauzalarning cho'zimini o'zgartirish mumkin. Buning uchun pauza belgilanadi «Nota belgilari paneli»ning asosiy yoki boshqa notalar bo'limidagi kerakli cho'zimdagi nota bosiladi. Bunda belgilangan pauza o'rnida bosilgan notaga mos pauza paydo bo'ladi, taktning qolgan qismidagi pauzalar ham muvofiq tarzda o'zgartiriladi. Masalan, bo'sh taktdagi butun notaning pauzasini belgilaymiz, so'ngra «Nota belgilari paneli»ning asosiy notalar bo'limidagi o'n olitilik nota belgisini bosamiz. Ushbu holda butun pauza muvofiq tarzda o'n olitilik pauza bilan boshlanuvchi pauzalar ketma-ketligiga ajraladi (rasmga qarang):



Ba'zi holatlarda nuqtali notaga mos keluvchi pauzalarni qo'yish talab etiladi. Buning uchun pauza belgilab olinib, nuqtali notaga mos keluvchi nota belgisi bosiladi, so'ngra asosiy yoki boshqa notalar bo'limidagi mos nuqta  (ikki yoki uch nuqta) belgisi bosiladi (rasmga qarang):



Ta'kidlash joizki, panelning yuqori qismida joylashgan nuqta «aksent» deb nomlanadi, u notaning tepasiga (ba'zida pastiga) qo'yiladi.


Pauzani yo'qotish uchun «Delete» klavishasidan foydalaniladi.

Multipauzalar – pauzalardan iborat bir necha taktlarning bitta pauza sifatida ifodalanishi va pauza belgisi ustida taktlar sonining ko'rsatilishi. Odatda, multipauzalar orkestr yoki ansambl partiturasining umumiy sadolanishida vaqtincha ishtirok etmaydigan cholg'ularining partiyalariga qo'yiladi. Orkestr partituralarida barcha cholg'ular o'z joylashish o'rniga ega. Orkestr ijrosi vaqtida


ba'zi cholg'ular bir necha takt mobaynida umumiy sadolanishida ishtirok etmasligi mumkin. Orkestr partiturasida ushbu cholg'ularning partiyalari pauzali taktlar bilan to'ldirilib, davom ettiriladi. Musiqa asarining partiturasida orkestr dirijyori uchun yoziladi. Chunki, dirijyor asarning umumiy ijroviy qiyofasini, jumladan pauzali taktlarni ham, ko'rib turishi zarur. Biroq, cholg'ularning partiyalarida bu ko'rinishdagi yozuvlarni aks ettirilishi orkestr ijrochilari uchun noqulay. Ushbu maqsadda ijrochilar partiyalaridagi ketma-ket kelgan pauzali taktlar umumiy multipauzalarga almashtiriladi. Ana shunda ijrochi multipauzada ko'rsatilgan pauzali taktlar sonini ko'radi va kerakli ijroviy qarorni qabul qiladi.



Multipauzalarni hosil qilish uchun «Layout» menyusiga o'tiladi (1), undan «Auto Breaks» buyrug'ini tanlab (2), muloqot oynasi ochiladi. Ochilgan oynaning «Multirests» bo'limiga o'tib (3), «Use multirests» (4) va «Automatically split multirests» (5) maydonlariga bayroqcha o'rnatiladi. So'ngra faollashgan kiritish maydonlarining (6) birida har bir multipauzaga qamrab olinadigan pauzali taktlar soni ko'rsatiladi va «OK» tugmasi bosiladi. Multipauzalarning hosil qilinishi tanlangan kiritish maydoniga ham bog'liq: «Split into groups of ... bars» – har bir multipauzada pauzali taktlar soni ko'rsatilgan sondan oshmaydi; «Split where bar numbers are multiples of...» – har bir multipauza ko'rsatilgan songa karrali taktdan boshlanadi va ulardagi pauzali taktlar soni ko'rsatilgan sondan oshmaydi:





CHIZIQ OB'YEKTLARI



Sibelius dasturida turli xil dinamik chiziqqlar mavjud, masalan: liga; krescendo; diminuendo; trel; tremolo; volta; ko'rsatkichlar va boshqa chiziqli belgilar. Ularni qo'yish uchun chiziq ob'yektlari oynasini «Create» menyusining «Lines» buyrug'i yoki tezkor klavisha «L» dan foydalanib ochish lozim. Mazkur oynada turli xil chiziq ob'yektlari taqdim etiladi, ulardan keraklisi topib belgilansa va «OK»

tugmasi bosilsa, bu chiziq ob'yekti faollashadi. Agarda,

-  chiziq ob'yekti qo'yiladigan nota yoki takt avvaldan belgilab olinib, so'ngra chiziq ob'yektlari oynasidan kerakli ob'yekt tanlangan bo'lsa, ushbu chiziq ob'yekti nota yoki taktning tagiga yoxud tepasiga avtomatik ravishda joylashtiriladi;
-  chiziq ob'yektlari oynasidan kerakli ob'yekt tanlansa va so'ngra nota matniga qaytilsa, tanlangan chiziq ob'yektini sichqoncha yordamida kerakli joyga qo'yish lozim bo'ladi.

Kiritilgan chiziq ob'yektining o'lchamlarini o'zgartirish uchun ularni boshlang'ich yoki tugallovchi markerlarini belgilash hamda markerni kerakli tomonga siljitish zarur. Zaruriyat tug'ilsa chiziq ob'yektlarini bir-biriga qo'shish mumkin. Buning uchun siljirilishi lozim bo'lgan chiziq ob'yektlari belgilanadi va u siljirilib boshqa chiziq ob'yektlari bilan birlashtiriladi (rasmga qarang):




1. 4-mashqni bajaring.

MATN OB'YEKTLARI

Nota partiturasida keladigan matnli yozuvlar matn ob'yektlari deyiladi. Musiqa asarining nomlanishi, kompozitor va qo'shiq matni muallifining ismi-shariflari, sarlavhalar, izohlar, taktlarning tepasida va tagida keladigan yozuvlar hamda texnik, dinamik ko'rsatmalar, vokal hamda xor partiyalarining matnosti so'zlari va boshqa matnli yozuvlar matn ob'yektlari hisoblanadi.

Barcha matn ob'yektlari Sibelius dasturi «Create» (1) menyusining «Text» (2) menyu-buyrug'i bo'limlarida joylashgan:



Sibelius dasturining «Create» menyusini menyu qatoridan yoki sichqonchaning o'ng tugmasini bosib ochish mumkin. Menyuning «Text» menyu-buyrug'i orqali taqdim etiladigan buyruqlar variantlarini batafsilroq qarab chiqamiz:

«Title» – asarning nomlanishi. Ushbu buyruq tanlanganidan so'ng sichqonchaning ko'rsatkichi asarning nomlanishi kiritilishi lozim bo'lgan joyga bosiladi. Bunda matn kiritish kursori faollashadi (agarda biror-bir takt belbilab olinib mazkur buyruq tanlansa, asarning nomlanishi kiritilishi lozim bo'lgan joyni ko'rsatish zarurati yo'qoladi, ya'ni matn kiritish kursori belgilangan takt joylashgan nota tizimi markazida paydo bo'ladi). Kerakli matn kiritib bo'linganidan so'ng «Esc» klavishasini yoki sichqoncha ko'rsatkichini matn ob'yektidan tashqarida xohlagan joyga bosish mumkin. Matn tahrirlash rejimidan

chiqariladi va odatdagidek aks ettiriladi. Agar matnni o'zgartirish yoki almashtirish zaruriyati tug'ilsa, matn ob'yekti ustida sichqonchanning chap tugmasi ikki marta tezkor bosilib, u faollashtiriladi. Matn ob'yektlarining ko'rinishini tahrirlash uchun, yuqorida qarab o'tilgan xususiyatlar panelining «Text» bo'limidan foydalaniladi.

➔ Matnli yozuvlarni kiritish, o'zgartirish va tahrirlash ishlari barcha matn ob'yektlari uchun bir xil tarzda amalga oshiriladi.

«*Subtitle*» – musiqa asari nomlanishiga qo'shimcha ma'lumotlar (sarlavhaosti yozuvi). Ushbu ma'lumotlar musiqa asarining asosiy nomlanishini tagiga biroz kichikroq o'lchamlarda yoziladi.

«*Composer*» – musiqa asari muallifi (kompozitor, bastakor).

«*Lyricist*» – she'riy matn muallifi (shoir, qo'shiq so'zlari muallifi).

«*Dedication*» – asarning nomlanishini tepasidan yoziladigan ma'lumotlar. Ushbu matn asarining asosiy nomlanishi ustida yoziladi (asar haqida ma'lumotlar, masalan, bag'ishlov yoki op. №...).

«*Tempo*» – temp ifodalari. Ushbu buyruqni ishga tushurish uchun sichqonchanning ko'rsatkichini kerakli joyga olib borib (musiqa asari matnida temp ifodalari bir necha marta o'zgarishi mumkin), o'ng tugmasini bosish va kontekst menyusidan «Tempo» buyrug'ini tanlash lozim. So'gra zarur temp ifodasini yozish yoki sichqonchanning o'ng tugmasini bosib, taqdim etiladigan ro'yxatdan temp ifodasining tayyor variantini tanlash mumkin. Temp ifodalarini kiritish buyrug'ini «Ctrl+Alt+T» tezkor klavishalar kombinatsiyasi orqali ham bajarish mumkin. Temp ifodalarining tayyor variantlari ro'yxatidan eng ko'p qo'llaniladigan temp ko'rsatmalari va belgilari hamda ularga mos keluvchi tezkor klavishalar kombinatsiyalari joy olgan. Agarda ushbu ro'yxatda kerakli temp ko'rsatmasi bo'lmasa, uni matnini yozib, kiritish lozim bo'ladi (rasmga qarang).

Meno mosso	Back-beat	o	Ctrl+Num 6	ë		ì	
Più mosso	Ballad	∞		ê		í	Ctrl+Shift+Alt+I
A tempo	Bebop	.	Ctrl+Num Del	ï		î	Ctrl+Shift+I
Adagio	Cool	←	Ctrl+x	ï		Û	
Allegretto	Fusion	→	Ctrl+b	ò	Ctrl+Shift+Alt+O	Ü	
Allegro	Hard Bop	← →		ó	Ctrl+Shift+O	Û	
Andante	Medium	← →		ö		Ü	
Con moto	Up	← →		ô		Û	
Grave	CODA	← →		ù	Ctrl+Shift+Alt+U	Û	
Largo	§	← →	Ctrl+Shift+4	ü	Ctrl+Shift+U	ß	
Lento	§	← →		û		‘	Alt+ë
Maestoso	⊕	← →	Ctrl+0	ü		’	Shift+Alt+ë
Moderato	⊕	← →		ü		“	Alt+2
Prestissimo	⊕	← →		ü		”	Shift+Alt+2
Presto	⊕	← →		ü		—	
Tempo	⊕	← →		À		—	
Tempo primo	⊕	← →		Á			
Vivace	⊕	← →		Ç			
Vivo	⊕	← →		È			
	⊕	← →		É			

«Metronome mark» – metronom ifodalari. Temp ko‘rsatmalariga o‘xshash tarzda kiritiladi.

«Other System Text» – nota tizimiga taalluqli boshqa matnli yozuvlar. Ushbu menyu-buyruq tanlanganida matn ob‘yektini kiritishga mo‘ljallangan qo‘shimcha buyruqlar paydo bo‘ladi. Bular quyidagilardan iborat:

Block lyrics
Boxed system text
Copyright
Header
Header (after first page)
Footer (outside edge)
Footer (inside edge)
Header (after first page, inside edge)
Metric modulation
Plain system text
Repeat (D.C./D.S./To Coda)

«Block lyrics» – vokal musiqa asarining oxirida she‘riy matnlarni yozish uchun mo‘ljallangan. Kiritilgan matnni sahifaning xohlagan joyiga siljitish va she‘r satrlarining ko‘rinishi bir tekisda bo‘lishiga erishish mumkin.

«Boxed system text» – kiritilgan matn to‘g‘ri to‘rtburchak ichiga joylashtirilib aks ettiriladi. Kiritilgan matn sahifada erkin siljiladi. Sibelius 4 versiyasida ushbu funksiya «Other Staff Text» menyu-blokida joylashgan.

«Copyright» – mualliflik huquqlariga oid ma‘lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladi. Matnni faqat vertikal yo‘nalishda siljilishi mumkin va sahifaning pastki qismi markazida joylashadi.


«Header» – sahifalarning belgilab olingan sahifadan boshlab aks ettiriladigan ustki kolontituli matni. Matn faqat vertikal yo‘nalishda siljilishi mumkin.

«Header (after first page)» – sahifalarning belgilab olingan sahifadan (birinchi sahifadan tashqari) boshlab aks ettiriladigan sahifa ustki kolontituli matni.


«Footer (outside edge)» – sahifalarning belgilab olingan sahifadan boshlab aks ettiriladigan pastki tashqi kolontituli (toq sahifalarda sahifaning o‘ng, juft sahifalarda – chap tomonida) matni.

«Footer (inside edge)» – sahifalarning belgilab olingan sahifadan boshlab aks ettiriladigan pastki ichki kolontituli (toq sahifalarda sahifaning chap, juft sahifalarda – o‘ng tomonida) matni.

«Header (after first page, inside edge)» – sahifalarning belgilab olingan sahifadan (birinchi sahifadan tashqari) boshlab aks ettiriladigan ustki ichki kolontituli (toq sahifalarda sahifaning chap, juft sahifalarda – o‘ng tomonida) matni.




«Metric modulation» – metrik modulyatsiyaga taaluqli belgilarni kiritish uchun mo‘ljallangan matn. Ushbu buyruq tanlanganidan so‘ng sichqonchanning o‘ng tugmasini bosish orqali ochiladigan kontekst menyusidan kerakli belgilarni tanlab, metrik modulyatsiya matni yoziladi. Matn sahifada xohlagan yo‘nalishda siljilishi mumkin (rasmga qarang):



«Plain system text» – tizimga taalluqli matnli belgilar. Matn

§	Ctrl+Shift+4
§	
⌘	Ctrl+0
⌘	
D.C. al Fine	
D.C. al Coda	
D.S. al Fine	
D.S. al Coda	
To Coda	
Fine	
jump to marker	



















sahifada xohlagan yo‘nalishda siljilishi mumkin. Sibelius 4 versiyasida ushbu funksiya «Other Staff Text» menyu-blokida joylashgan.



«Repeat (D.C./D.S./To Coda)» – takrorlash, final, koda kabi matnlarni kiritishga xizmat qiladi. Ushbu buyruq tanlanganidan so‘ng sichqonchanning o‘ng tugmasini bosish orqali ochiladigan kontekst menyusidan kerakli ifodalarni (rasmga qarang) tanlab, zarur matn yozuvi hosil qilinadi. Matn sahifada xohlagan yo‘nalishda siljilishi mumkin.

«Expression» – dinamik belgilar, masalan, *f*, *p*, *crech.* va boshqalar. Dinamik belgilarni kiritish uchun biror nota belgilanishi va «Text» menyu-

buyrug‘idan «Expression» buyrug‘i tanlanishi lozim. Agarda, dastlab biror nota belgilab olinmagan bo‘lsa, «Expression» buyrug‘i tanlanganidan so‘ng dinamik belgi kiritilishi kerak bo‘lgan joy sichqoncha yordamida ko‘rsatiladi. Matn kiritish kursori paydo bo‘lgan joyda sichqonchani o‘ng tugmasini bosish orqali kontekst menyusi ochiladi (yoki klaviaturaning «menyu»⁶ klavishasidan foydalanish mumkin). Taqdim etiladigan ro‘yxatdan kerakli matn yoki belgi tanlanadi. Dinamik belgilarni «Ctrl+E» tezkor klavishalar kombinatsiyalaridan foydalanib ham qo‘yish mumkin. Ko‘p qo‘llaniladigan dinamik belgilar uchun tezkor klavishalarning kombinatsiyalari mavjud. Ulardan ko‘proq foydalanish ish unumdorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tezkor klavishalar kombinatsiyalarida «Num» degan atama uchraydi. «Num» – bu kompyuter klaviaturasining kalkulyatori. Bunday tezkor klavishalardan foydalanish ushuni klaviatura kalkulyatori («NumLock» indikator) yoqilgan bo‘lishi kerak. Rasmda dinamik belgilarning taqdim etiladigan ro‘yxati va bu belgilarga mos tezkor klavishalar kombinatsiyalari ko‘rsatilgan:

<i>ppp</i>	<i>cresc.</i>	Ctrl+Shift+C	<i>ped.</i>		Ctrl+ b	<i>í</i>	<i>ò</i>
<i>pp</i>	<i>dim.</i>	Ctrl+Shift+D	<i>tenuto</i>			<i>ï</i>	<i>ó</i>
<i>p</i>	<i>dolce</i>	Ctrl+P		Ctrl+Num 7		<i>ò</i>	<i>ô</i>
<i>mp</i>	<i>espress.</i>			Ctrl+Num 8		<i>ó</i>	<i>û</i>
<i>mf</i>	<i>legato</i>			Ctrl+Num 9		<i>ô</i>	<i>ü</i>
<i>f</i>	<i>leggiero</i>	Ctrl+F			Ctrl+3	<i>ù</i>	<i>Û</i>
<i>ff</i>	<i>marcato</i>				Ctrl+Shift+ALT+A	<i>ú</i>	<i>β</i>
<i>fff</i>	<i>meno</i>			Ctrl+Num 1	Ctrl+Shift+ALT+A	<i>û</i>	<i>‘</i>
<i>fp</i>	<i>molto</i>			Ctrl+Num 2	Ctrl+Shift+A	<i>ü</i>	<i>,</i>
<i>fz</i>	<i>niente</i>			Ctrl+Num 3		<i>ù</i>	<i>“</i>
<i>rfz</i>	<i>più</i>			Ctrl+Num 4		<i>À</i>	<i>”</i>
<i>m</i>	<i>poco</i>	Ctrl+M		Ctrl+Num 5	Ctrl+Shift+ALT+E	<i>Á</i>	<i>—</i>
<i>n</i>	<i>sempre</i>	Ctrl+N		Ctrl+Num 6	Ctrl+Shift+E	<i>Ç</i>	
<i>r</i>	<i>staccato</i>	Ctrl+R				<i>È</i>	
<i>s</i>	<i>subito</i>	Ctrl+S				<i>É</i>	
<i>z</i>	<i>con</i>	Ctrl+Shift+Z		Ctrl+Num Del		<i>Ì</i>	
	<i>senza</i>			Ctrl+x		<i>Í</i>	
							Alt+ë
							Shift+Alt+ë
							Alt+2
							Shift+Alt+2

«Technique» – ijrochi yoki dirijyor uchun texnik ko‘rsatmalar, masalan, **arco**, **tutti** va boshqalar. Ushbu ko‘rsatmalarni kiritish «Expression» buyrug‘i yordamida dinamik belgilarni kiritishga o‘xshash amalga oshiriladi. Texnik belgilarni kiritishni «Ctrl+T» tezkor klavishalar kombinatsiyasidan foydalanib ham

⁶ «Menyu» klavishi – klaviaturaning pastki qismida, o‘ng tomonidagi «Ctrl» klavishi yonida joylashgan.

boshlash mumkin. Ko'p qo'llaniladigan texnik belgilar uchun tezkor klavishalarning kombinatsiyalari mavjud. Quyidagi rasmda texnik belgilarning taqdim etiladigan ro'yxati va bu belgilarga mos tezkor klavishalar kombinatsiyalari keltirilgan:


arco	unis.			è		É
con sord.		Ctrl+Num 7		ì	Ctrl+Shift+Alt+I	Ì
div.		Ctrl+Num 8		í	Ctrl+Shift+I	Í
divisi		Ctrl+Num 9		î		Ò
l.v.				ï		Ó
mute				ò	Ctrl+Shift+Alt+O	Û
nat.				ó	Ctrl+Shift+O	Ü
open		Ctrl+Num 1		ö		Û
pizz.		Ctrl+Num 2		ô		Û
senza sord.		Ctrl+Num 3		ù	Ctrl+Shift+Alt+U	ß
solo		Ctrl+Num 4		ú	Ctrl+Shift+U	‘
sul pont.		Ctrl+Num 5		ü		’
sul tasto		Ctrl+Num 6		û		“
tre corde				Û		”
tremolo				Ä		—
tutti				Å		—
una corda				Ç		—
		Ctrl+Num Del		È		
		Ctrl+x		É		
		Ctrl+b		È		

«Lyrics» – vokal partiyasining matnoshi soʻzlari. Sibeliyusda vokal partiyasining 1- va 2-ovozlarini yozish uchun «Create» menyusining «Text»→«Lyrics» menyuu-buyrugʻi (Sibeliyus 4 versiyasida «Text» menyuu-buyrugʻi) boʻlimlaridagi, qoʻshimcha 3- va 4-ovozlarni yozish uchun «Text»→«Lyrics» menyuu-buyrugʻi (Sibeliyus 4 versiyasida «Other Staff Text» menyuu-buyrugʻining ichki boʻlimlaridagi buyruqlari)dan foydalaniladi. Buning uchun vokal partiyasidagi nota belgilandi va matnoshi soʻzlari kiritiladigan zarur ovoz variantiga mos keluvchi buyruq tanlanadi, yoki dastlab zarur buyruq tanlanib, sichqonchani koʻrsatkichi bilan matnni kiritish joyi koʻrsatiladi⁷. Matnoshi soʻzlarini kiritishni boshlash uchun «Ctrl+L» (1-ovoz uchun, 2-ovoz uchun – «Ctrl+Alt+L») tezkor klavishalar kombinatsiyasidan ham foydalaniladi. Vokal partiyasi matnini kiritayotganda soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib yozish uchun defis «-

⁷ Matn kiritish joyini koʻrsatish – sichqoncha koʻrsatkichini matnoshi soʻzlari kiritish boshlanadigan notaga olib borib, chap tugmasini bosish.

» belgisi ishlatiladi. Bunda notalar orasiga «-» belgisi qo'yiladi va kursor navbatdagi notaning tagida paydo bo'ladi. Vokal matnida bir so'z tugab, ikkinchisi navbatdagi notadan boshlansa probeldan foydalaniladi. Agar matnda «B», «C» va shinga o'xshash yozilayotgan so'zning birinchi bo'g'iniga bog'langan qo'shimchalar ishlatilsa, pastki chiziqdan foydalaniladi – «Shift+defis («-»)». Shunda so'z bo'g'ini va unga qo'shimcha simvol yoysimon chiziq bilan birlashtirilgan holda ifodalanadi (rasmga qarang):

«*Other Staff Text*» – nota qatoriga taalluqli boshqa matnli yozuvlar. Ushbu menyu-buyruq o'zida har xil matnli yozuvlari yaratish variantlarini jamlagan. Ular juda kamdan-kam hollarda



ishlatiladigan matn ob'yektlari hisoblansada, ba'zilar ish faoliyatingizda juda foydali bo'lishlari mumkun. Masalan, «Boxed text» – to'g'ri to'rtburchak ichiga joylashtiriladigan matn, yoki

yuqorida aytib o'tilgan «Lyrics line 3, 4, 5» – vokal partiyasining 3-, 4- va 5-ovozlari, «Roman numerals» – lotincha sonlarni kiritishga mo'ljallangan matn, «Time signatures (one staff only)» – asarning takt o'lchovini kiritish (faqat bir nota qatori uchun – ba'zan asarlarda turli nota qatorlarida turlicha takt o'lchovlari ko'rsatilishi mumkin, ana shunda ushbu funksiya juda qo'l keladi). Qarab chiqilgan menyu-buyruq tarkibidagi matn kiritishga mo'ljallangan boshqa buyruqlarni mustaqil o'rganish tavsiya etiladi.


«*Blank Page Text*» – titul varag'iga bezak berishga mo'ljallangan matn ob'yektlarini kiritish menyu-buyrug'i.

«*Special Text*» – maxsus matn ob'yektlarini kiritish menyu-buyrug'i.



Kuy parchalarini raqamlash. Yirik hajmli musiqa asarlarida kuyning parchalari raqamlanadi. Ushbu buyruq yordamida esa kuy parchalarini turli ko‘rinishlarda raqamlash amalga oshirilishi mumkin. «Create» menyusining «Rehearsal Mark» (tezkor klavishalar kombinatsiyasi – «Ctrl+R») buyrug‘i (rasmga qarang)

tanlansa, ekranda raqamlash oynasi paydo bo‘ladi. Bu oynada «Consecutive» yoki «Start at...» variantlaridan birini tanlab, «OK» tugmasi bosiladi. So‘ngra sichqoncha ko‘rsatkichi raqam qo‘yiladigan takt ustiga olib borilib, uning chap



tugmasi bosiladi. «Consecutive» varianti tanlanganida belgilangan taktning tepasida tartib bo‘yicha navbatdagi raqam paydo bo‘ladi. «Start at...» varianti tanlanganida raqamlash oynasidagi maydonga belgilangan taktning tepasida aks ettirilishi lozim bo‘lgan raqamni kiritish zarur. Odatda, raqam o‘rniga raqamning lotin alifbosidagi harfiy ifodasi aks ettirilishi mumkin. Raqamlashning boshqacha

variantlarini belgilash uchun asosiy menyuning «House Style» → «Engraving Rules» (tezkor klavishalar kombinatsiyasi – «Ctrl+Shift+E») buyrug‘idan foydalanib «Engraving Rules» oynasi ochiladi. Ushbu oynada taqdim etiladigan ro‘yxatdan «Rehearsal Mark» punkti tanlanadi. Oynaning o‘ng tomonida aks ettiriladigan «Appearance» ro‘yxatidan raqamlashning zarur varianti tanlanishi va «OK» tugmasi bosilishi kifoya. Ushbu oynada «Edit Text Style...» orqali taqdim etiladigan oynadan foydalanib partiturada aks ettiriladigan raqamlarning shrift parametrlarini sozlash mumkin. Kuy parchalarini raqamlashda «Ctrl+R» tezkor klavishalar kombinatsiyasidan ham foydalanish mumkin, bu raqamlashning «Consecutive» variantiga mos keladi.



1. 5-mashqni bajaring.

2. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Bilaman	Bildim	Bilmoqchiman
---------	--------	--------------


MUSIQIY SIMVOLLAR

Nota matnini terishda ba'zi musiqiy simvollarni qo'yish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Ushbu simvollar ko'p hollarda bezak vazifasini bajaradi hamda ular nota matnida maxsus simvollar yoki tahrirlanmaydigan tasvir ob'yektlari sifatida aks ettiriladi. Ularni faqat siljitishgina mumkin, xolos. Musiqiy simvollarni nota matniga kiritish uchun «Create» → «Symbol» buyrug'i (tezkor klavisha «Z») yordamida taqdim etiladigan «Symbol» oynasidan foydalaniladi. Ushbu oynada musiqiy simvollarning umumiy ro'yxati, ularning toifalari bo'yicha tartib bilan taqdim etilgan (rasmga qarang). Ro'yxatdan kerakli simvolni tanlash va «OK» tugmasini bosish orqali uni nota hujjatiga qo'yish mumkin. Simvolni tanlash uchun sichqoncha ko'rsatkichini simvolga olib borib, chap tugmasini bosish yetarli. So'ngra sichqoncha ko'rsatkichini nota hujjatining kerakli joyiga olib borib, chap tugmasini yana bir marotaba bosish lozim.




Aytib o'tilganidek, musiqiy simvollarni nota hujjatining xohlagan joyiga siljitish mumkin, shu bois ularni talab darajasida joylashtirish muammo tug'dirmaydi. Ushbu maqsadda sichqoncha yoki klaviaturaning boshqaruv klavishalaridan foydalanish mumkin.

Simvollar oynasining pastki qismida belgilab olingan simvolning musiqa hujjatida aks ettirish kattaligini («**Size**») tanlash mumkin: «Normal» – me'yoriy o'lchamda, «Cue size» – asliga nisbatan 75% kattalikda, «Grace note size» – asliga nisbatan 50% kattalikda, «Cue grace note size» – asliga nisbatan 25% kattalikda.


Shuningdek, musiqiy simvolni nota hujjati elementlariga bog'langan holda joylashuvini («**Attach to**») belgilash mumkin: «Staff» – nota qatoriga bog'lash, «System» – nota tizimiga bog'lash.



«House Style» menyusining «Edit symbols...» buyrugʻidan foydalanib musiqiy simvollarni tahrirlash va yangi simvollar yaratish mumkin. Taqdim etiladigan «Symbol» oynasining (1) pastki qismidagi «New...» (2) tugmasi yangi simvollar yaratish imkonini beradi. Bunda, avvalambor, ochilgan oynaning «Name» (3) maydoniga yangi simvolning nomi kiritiladi. «Music font» (4) roʻyxatidan yaratilayotgan simvolning shrift garniturasini tanlanadi. Barcha simvollar Sibelius dasturining va Windows operatsion tizimining shriftlari asosida yaratiladi, shu bois kerakli shriftni topish va undan pastroqda taqdim etiladigan mos roʻyxatdan (5) kerakli simvolni (6) tanlash lozim boʻladi. Tanlab olingan simvol konstruktoring ishchi maydonida (7) aks ettiriladi. «Extra Symbol» oynasining «Add...» (8) tugmasini bosish yordamida simvollar roʻyxatidan yaratilayotgan simvolning navbatdagi (mazkur holatda, ikkinchi) elementini tanlash mumkin (9). «Extra Symbol» oynasidagi «Position» guruhiga mansub boshqaruv tugmalari (10) yordamida simvol elementlarining oʻzaro joylashishi sozlanadi. Yangi simvol koʻrinishi yaratilganidan soʻng «OK» tugmasi bosilsa, u simvollar oynasida paydo boʻladi.




TAKTLAR KO‘RINISHI VA JOYLASHUVINI TAHRIRLASH AMALLARI



Taktlarning ko‘rinishi va joylashuvini tahrirlash amallari quyidagilardan iborat: taktlarning kengligini *o‘zgartirish*, taktlar orasidagi *vertikal intervalni kengaytirish va toraytirish*, tizimdagi taktlar *sonini ko‘paytirish va kamaytirish* evaziga nota tizimidagi

taktlarni *zichroq yoki siyrakroq joylashtirish*, tizimni *bo‘laklarga ajratish* (taktlar orasiga masofa o‘rnatish), taktlarni butunlay *o‘chirib tashlash* va yangi taktlar *qo‘shish*, takt *chiziqlarining ko‘rinishini o‘zgartirish*, taktlar ustiga va ostiga *qo‘shimcha nota qatori taktlarini qo‘shish* va hokazo.

Taktlarning kengligini *o‘zgartirish* uchun sichqoncha ko‘rsatkichi kerakli taktning o‘ng takt chizig‘i, ya‘ni taktning tugallash chizig‘i ustiga olib boriladi va chap tugmasi bosiladi. Taktning kengaytirish uchun takt chizig‘i o‘ng, toraytirish uchun – chap tarafga siljiriladi (ushbu maqsadda klaviaturaning boshqaruv klavishalaridan ham foydalanish mumkin). Taktlar orasidagi *vertikal intervalni kengaytirish va toraytirish* uchun takt belgilab olinadi va sichqonchaning chap tugmasini bosib, takt pastga yoki tepaga siljiriladi (Aslida, ushbu amal musiqa asari cholg‘ularining nota qatorlari orasidagi intervalni o‘zgartirish hisoblanadi).



Nota tizimidagi taktlarni *zichroq yoki siyrakroq joylashtirish* uchun xususiyatlar panelining «**Bars**» (taktlar) bo‘limidagi ro‘yxatdan foydalanilish mumkin (rasmga qarang). Bu amal yordamida tizimdagi taktlar *soni ko‘paytiriladi yoki kamaytiriladi*.

Taktlarni *zichroq yoki siyrakroq joylashtirishga* xizmat qiluvchi ro‘yxatdan quyidagi variantlar o‘rin olgan:

«No break» (ajratmasdan) – ushbu takt va navbatdagi takt bir tizimda joylashishi mumkin;

«System break» (tezkor klavisha – «Enter») – tizim bo‘yicha ajratish, navbatdagi takt yangi tizimda joylashadi;

«Page break» (tezkor klavishalar kombinatsiyasi – «Ctrl+Enter») – sahifa bo‘yicha ajratish, navbatdagi takt keyingi sahifada joylashadi;

«Middle of system» – belgilangan taktlarni zichlab, bitta tizimga joylashtirish;


«Middle of page» – belgilangan taktlarni zichlab, bitta sahifaga joylashtirish uchun mo‘ljallangan.


Taktlarni *zichroq yoki siyrakroq joylashtirish* uchun «Layout» (tahrirlash) menyusining «Break» (ajratish) menyu-buyrug‘i taqdim etadigan variantlardan ham foydalanish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, xususiyatlar panelining «Bars» bo‘limidagi «Gap before Bar» maydoniga musbat qiymat kiritish orqali taktlar orasiga masofa o‘rnatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida belgilangan takt joylashgan nota tizimini *bo‘laklarga ajralashiga* (bitta takt belgilangan vaziyatda, yonma-yon joylashgan ikkita tizimga) olib keladi (rasmga qarang). «Gap before Bar» maydoniga manfiy qiymat ham kiritish mumkin, biroq ushbu vaziyatda belgilangan taktdan boshlanuvchi tizim undan oldingi tizimdagi oxirgi taktning ma‘lum qismini yopib qo‘yadi.

The image shows a musical score snippet with two systems. The first system is marked '62' and the second system is marked 'rall.' and 'a tempo'. The lyrics are in Russian: 'Кор немв зем люпро-ник ниильсе лай мне' and 'кры-ля, как тво - и.' The score includes a vocal line and a piano accompaniment.

Taktni butunlay o‘chirib tashlash uchun klaviaturaning «Ctrl» klavishasini bosib turgan holda taktни belgilash lozim. Ushbu vaziyatda takt qo‘shaloq

to'rtburchakli ramka bilan belgilanadi . So'ngra «Delete» klavishasi bosilsa, takt musiqa asaridan butunlay chiqarib tashlanadi va navbatdagi takt ushbu taktning o'rnini egallaydi. Agarda takt odatdagicha belgilansa, ya'ni oddiy to'rtburchakli ramka bilan qamrab olinsa, «Delete» klavishasini bosish orqali takt nota va belgilardan tozalanib, pauzasi qoldiriladi. Bir necha taktni butunlay o'chirib tashlash zarur bo'lsa, «Ctrl» klavishasini bosib turgan holda o'chirib tashlanadigan taktlar guruhidagi birinchi takt belgilanadi, so'ng «Ctrl» klavishasi qo'yib yuborilib, «Shift» klavishasini bosib turgan holda taktlar guruhidagi oxirgi taktga sichqoncha ko'rsatkichi bilan bosiladi. Ana shunda guruhning barcha taktlari qo'shaloq to'rtburchakli ramka bilan belgilanadi. So'ng «Delete» klavishasidan foydalanib ularni butunlay o'chirib tashlash mumkin:



Musiqa asariga yangi *taktlar* qo'shish uchun «Create» menyusining «Bar» menyusiga buyruqidan

foydalaniladi. Uning tarkibiga quyidagi buyruqlar kiradi:




«At End» – nota hujjatining oxirida bitta takt qo'shish («Ctrl+B»);

«Single» – joriy taktdan keyin (yoki sichqoncha yordamida ko'rsatiladigan joyga) bitta takt qo'shish («Ctrl+Shift+B»);

«Other» – joriy taktdan keyin ko'rsatilgan sondagi taktlarni qo'shish («Alt+B»). Ushbu buyruq tanlanganida «Create Bars» oynasi ochiladi. Oynadagi «Number of bars» maydoniga musiqa asariga qo'shilishi lozim bo'lgan taktlar soni kiritiladi va «OK» tugmasi bosiladi. Natijada joriy taktdan keyin ko'rsatilgan sondagi qo'shimcha taktlar paydo bo'ladi. Agarda ushbu buyruqqa murojaat qilishdan avval biror nota, belgi yoki takt belgilanmagan bo'lsa, taktlar qo'shilishi lozim bo'lgan joy sichqoncha yordamida keyin

ko'rsatiladi. «Create Bars» oynasidagi «Bar Length» maydonida «Same as time signature» varianti tanlansa, qo'shiladigan taktlarning o'lchovi asarning takt o'lchoviga mos keladi, «Irregular» varianti tanlanganida faollashadigan ro'yxatdan foydalanib qo'shiladigan taktlarning o'lchovini o'zgartirish mumkin.

Takt *chiziqlarining ko'rinishini o'zgartirish* amallari «Create» menyusining «Barline» menyu-buyruqlari yordamida bajariladi. «Barline» punktining tarkibiga



quyidagi buyruqlar kiradi:

«Start Repeat» – repriza boshlanishi;

«End Repeat» – reprizaning tugashi;

«Double» – ikkilangan takt chizig'i;


«Dashed» – punktir takt chizig'i;

«Final» – asarni yakunlovchi takt chizig'i;


«Invisible» – ko'rinmas takt chizig'i;

«Normal» – odatdagi (me'yoriy) takt chizig'i;

«Tick» (nota qatorining beshinchi chizig'ida), «Short» (qisqa), «Between Staves» (nota qatorlari orasida) – ushbu buyruqlar yordamida takt chiziqlari o'ziga xos ko'rinishlarda aks ettiriladi (rasmga qarang):



Taktlarning tartib raqamlari odatda har bir tizimning boshida aks ettiriladi. Agar taktlarning tartib raqamlarini aks ettirishini o'zgartirish lozim bo'lsa «House style» menyusining «Engraving Rules» buyrug'i taqdim etadigan oynadagi ro'yxatning «Bar Numbers» punktidan foydalaniladi (rasmga qarang):



«Frequency» maydonidagi variantlardan birini tanlash orqali taktlarning tartib raqamlari qay tarzda aks ettirilishi belgilanadi:

«Every» – kiritilgan songa karrali taktlarda;

«Every system» – har bir tizim boshlanishida;



«No bar numbers» – taktning tartib raqamlari aks ettirilmaydi.

«Bar Numbers» oynasidagi «Edit Text Style...» tugmasi yordamida taktlarning tartib raqamlarini aks ettirishda qo'llaniladigan shrift parametrlarini (garniturasini, o'lchami, bezaklari va hokazo) sozlash mumkin.


Taktlar tepasiga va pastiga qo'shimcha nota qatori taktlarini qo'shish ishlari, asosan, bironta cholg'uning takrorlanadigan kuyini bildirish uchun amalga oshiriladi. Masalan, an'anaviy musiqada doira usulini bildirish uchun asosiy kuyning tagiga doira ijrosining bir yoki bir necha taktdan iborat takrorlanadigan ohanglari qo'shiladi. Sibelius 4 va Sibelius 6 versiyalarida ushbu amalni bajarish o'xshash va bir-biridan keskin farq qilmaydi.

Sibelius 4 versiyasida ushbu vazifani bajarish quyidagicha:

- 1) Asosiy kuyning birinchi takti sichqoncha yordamida belgilanadi;
- 2) «Create» menyusining «Other» menyu-buyrug'iga o'tib «Ossia Staff» punktidagi «Ossia Below» buyrug'i tanlanadi;
- 3) Asosiy nota qatori tagida qo'shimcha nota qatori paydo bo'ladi;
- 4) Qo'shimcha nota qatori belgilanadi va xususiyatlar panelining «Staves» bo'limi ochiladi;
- 5) «Staves» bo'limidagi ro'yxatdan «1 line» varianti tanlanadi;
- 6) Qo'shimcha nota qatorining 1 chiziqli ko'rinishga keladi va uning kalitorti belgilari yo'qoladi;
- 7) Qo'shimcha nota qatoridagi 1-takti yakunlovchi chiziqni sichqoncha yordamida o'ng tarafga siljitib, taktlar soni ko'paytiriladi;
- 8) Akkolada chiziqlari sichqoncha yordamida belgilanadi va «Delete» klavishasini bosib olib tashlanadi (rasmga qarang) Farg'ona xalq ashulasi:



Doira usulidagi kalit belgisi mos belgiga o'zgartirilishi zarur.



Sibelius 6 versiyasida ushbu vazifa quyidagicha bajariladi:

1) «Create» menyusining «Instruments» (tezkor klavisha «I») buyrug'i orqali taqdim etiladigan oynada «Choose form» ro'yxatidan «All Instruments»ni, «Famili» ro'yxatidan

«Orchestral Unpitched Percussion»ni, «Instrument» ro'yxatidan «Percussion [1 line]» cholg'u asbobini tanlab, partituraga qo'shiladi (rasmga qarang):

Farg'ona xalq ashulasi

M.M. ♩=63-66

Gul-sha-ni rux - sor u-za

2) Yangi cholg'u asbobi asosiy nota qatori tagiga joylashtiriladi (cholg'u asboblarini joylashtirish haqida yuqorida qayd etilgan);

3) Yangi cholg'u asbobi nota qatorining birinchi takti sichqoncha yordamida belgilanadi;

4) «Create» menyusining «Other» menyu-buyrug'iga o'tib «Ossia Staff» punktidagi «Ossia Below» buyrug'i tanlanadi;

5) Urma-zarbli cholg'uning birinchi takti ustiga sichqonchanning chap tugmasini ketma-ket uch marotaba bosib, butun nota qatori belgilanadi va «Delete» klavishani bosib nota hujjatidan olib tashlanadi (rasmga qarang):

Farg'ona xalq ashulasi

M.M. ♩=63-66

Gul-sha-ni rux - sor u-za

ul chash-mi o - xu - lar - mi - dur, Jab - ni ko' - pu

6) Qo'shimcha nota qatoridagi 1-taktni yakunlovchi chiziqni sichqoncha yordamida o'ng tarafga siljitib, taktlar soni ko'paytiriladi;

7) Akkolada chiziqlari sichqoncha yordamida belgilanadi va «Delete» klavishasini bosib olib tashlanadi.


Cholg'uning nomi yozuvining pozitsiyasi. Yangi nota hujjati yaratilganida har bir nota qatorining chap yonida mos cholg'ularning nomlari avtomatik tarzda aks ettiriladi. Agarda nota hujjatida cholg'uning nomi aks ettirilmasa, ushbu cholg'uning nomlanish yozuvi e'tiborsizlik tufayli o'chirib tashlangan bo'ladi. Bunda «House Style» menyusining «Engraving Rules» buyrug'i taqdim etadigan oynadagi ro'yxatdan «Instruments» varianti tanlanadi. Ro'yxatning o'ng yonida paydo bo'ladigan «Instrument Names» guruhi parametrlari yordamida cholg'ularning nomlanish yozuvlari pozitsiyalar bo'yicha aks ettirilishini belgilashlar:

«At start» – boshlang'ich nota tizimida (nota hujjatning boshida);

«Subsequently» – keyingi nota tizimlarida;


«At new sections» – yangi qismlar boshlangan tizimlarda.

Har bir holat uchun cholg'ular nomlari aks ettirilishining uch varianti mavjud: «Full» – to'liq nomi, «Short» – qisqacha nomi, «None» – nomsiz. Har bir pozitsiya bo'yicha kerakli variant tanlanadi va «Change ...» maydoniga bayroqcha o'rnatish orqali cholg'lar nomlanishining aks ettirilishi belgilanadi (rasmga qarang):



Takt tizimlarini bir-biridan ajratish belgisini aks ettirish (separatsiya \equiv).
«Engraving Rules» buyrug'i taqdim etadigan oynada «Instruments» varianti

bo'yicha sozlashlarning «System Separators» guruhi parametrlari yordamida separatsiya belgilari aks ettirilishi belgilanadi. «Appear when ...» maydoniga separatsiya tizimlari soni kiritiladi. Masalan, har bitta tizimdan keyin separatsiya belgisi aks ettirilishi zarur bo'lsa, bu maydonga «1» soni kiritiladi (rasmga qarang).




Bunda, odatda separatsiya belgisi tizimning chap tomonida (agar «Draw of right separator» maydoniga bayroqcha o'rnatilsa – o'ng tomonida ham) aks ettiriladi.



1. 6-mashqni bajaring.

NOTA HUJJATLARINI BOSHQA FORMATLARGA – GRAFIKA, AUDIO, SIBELIUSNING BOSHQA VERSIYALARIGA O'GIRISH (KONVERTATSIYA)

Sibeliusda terilgan nota matnlarini grafika, audio, Sibeliusning boshqa versiyalariga o'girish, ya'ni konvertatsiya qilish imkoniyati mavjud. Sibelius dasturida ushbu funktsiyaning mavjudligi nota adabiyotlarini, musiqaviy internet




saytlarini yaratish, audio muharrirlardan foydalanib musiqani qayta ishlash (pluginlarni yaratish)da juda qo'l keladi va uni musiqa matnlari bilan ishlashga mo'ljallangan qamrovi keng, maxsus dasturlar sirasiga kiritish uchun asos bo'ladi. Konvertatsiya qilish amallari quyidagicha bajariladi.

«File» menyusidagi «Export» menyu-buyrug'i punktlaridan birini («Audio...», «Graphics...», «Manuscript Paper», «MIDI File...», «Scorch

Web Page...», Sibelius 2, 3, 4, 5...», «Sibelius Student...») tanlash orqali o‘sha formatga konvertatsiya qilish uchun sozlashlarni bajarish jarayoniga o‘tiladi.

«Graphics...» formati tanlanganda nota hujjati (uning qismlari)ni quyidagi grafik formatlarga konvertatsiya qilish mumkin: «EPS», «TIFF», «BMP», «PNG», «EMF». Buyruq tanlangandan so‘ng taqdim etiladigan oynada kerakli format tanlanadi. Masalan, Word dasturida foydalanish uchun nota hujjatini «TIFF» yoki «BMP» formatlariga konvertatsiya qilgan ma’qul.

Konvertatsiya sozlashlari oynasining chap tomonida dasturlar va grafik formatlar ro‘yxati («Program/Format») taqdim etiladi (rasmga qarang).



Ro‘yxatning o‘ng tarafida nota hujjatining konvertatsiya qilinadigan sahifalari ko‘rsatiladi («Pages»):

«All» – hujjatning barcha sahifalarini tanlangan grafik formatga o‘tkazish;

«Graphics selection» – nota hujjatida «Alt+G» klavishalar kombinatsiyasini bosib, so‘ngra belgilab olinadigan fragmentni tanlangan grafik formatga o‘tkazish;

«Selected System» – nota hujjatida belgilangan tizimlarni tanlangan grafik formatga o‘tkazish;

«Pages» – nota hujjatining kiritish maydonida ko‘rsatilgan sahifalarini tanlangan grafik formatga o‘tkazish.

Oynaning markazidan o‘rin olgan «Folder» guruhi sozlashlari yordamida konvertatsiya natijalari saqlanadigan fayl va papkalar ko‘rsatiladi:

«File name» – konvertatsiya natijalari saqlanadigan fayl nomi;

«Save to» – konvertatsiya natijalari saqlanadigan papka;


«Browse...» – konvertatsiya natijalari saqlanadigan joyni tanlash tugmasi;

«Create subfolder» – konvertatsiya natijalari saqlanadigan papkada ichki papka yaratilishini ko‘rsatish.

Grafik formatlarga konvertatsiya sozlashlari oynasining o‘ng tomonida konvertatsiya sifati, fayllarning o‘lchamlari, kattaligi, grafikada aks ettiriladigan elementlar, grafika rangi bo‘yicha sozlashlar belgilanadi.



Sibelius 4 va Sibelius 6 versiyalarida nota hujjatlarini «MIDI» va «WAV» audio formatlariga o‘tkazish imkoniyati mavjud. Buning uchun «File» menyusi «Export» menyu-buyrug‘idan «Audio...» varianti tanlanishi lozim.

Nota hujjatini Sibeliusning boshqa versiyalariga o‘girish uchun «File» menyusi «Export» menyu-buyrug‘ining «Export Sibelius 2,3,4,5 or Student» variantlaridan foydalaniladi. Bunda, taqdim etiladigan faylni saqlash oynasida konvertatsiya natijalari saqlanadigan faylning nomi kiritilishi, u joylashtiriladigan papka va Sibelius versiyasi ko‘rsatilishi mumkin (rasmga qarang):





PARTITURALAR BILAN ISHLASH

Partiyalarni partituranadan ajratib qarash, bir necha cholg'ularning partiyalarini partituranadan ajratib qarash va tahrirlash

Partituralar bilan ishlashda cholg'ularning partiyalarini partituranadan ajratib qarash va tahrirlash uchun  ochiladigan ro'yxatdan foydalaniladi. Ushbu ro'yxat dasturning instrumentlar panelida joylashgan. «Full Score» varianti partituraning barcha cholg'ularini aks ettirilishini ta'minlaydi. Ochiladigan ro'yxat belgisi () bosilsa, tanlash uchun partituraning barcha cholg'ularning ro'yxati aks ettiriladi. Ro'yxatdan ma'lum bir cholg'uni tanlab, ishchi sahifasida faqat o'sha cholg'uning partiyasi aks ettirilishiga erishish mumkin. Bunda, partiyaning, avtomatik ravishda nota tizimlari bo'yicha ajratishlar o'rnatilgan va multipauzalar hosil qilingan, sahifalari taqdim etiladi. Agarda sizni nota tizimlari bo'yicha avtomatik tarzda ajratishlar qoniqtirmasa, ushbu funksiyani o'chirib qo'yish mumkin. Buning uchun «Layout» menyusining «Auto Breaks...» buyrug'i yordamida taqdim etiladigan «Auto Breaks» oynasidan (rasmga qarang) foydalaniladi. Ushbu oynadagi «Use auto system breaks» va «Use auto page breaks»

maydonlariga o'rnatilgan bayroqchalarni olib tashlash va «OK» tugmasini bosish zarur. Ana shundan so'ng nota hujjatini sahifalar va tizimlar bo'yicha ajratishlarini foydalanuvchi o'z ta'biga ko'ra qo'yib chiqishi mumkin.




Partituraning partiyalarini ajratib qarash uchun quyidagi tezkor klavishalar va ularning kombinatsilaridan foydalanish maqsadga muvofiq:



«W» – partiturada belgilab olingan cholgʻuning partiyasini hosil qilish;

Next Part – partitura va partiyalar roʻyxati boʻyicha bundan keyingi partitura yoki partiyani aks ettirish («Ctrl+Shift+Tab»);

Previous Part – partitura va partiyalar roʻyxati boʻyicha bundan oldingi partitura yoki partiyani aks ettirish («Ctrl+Shift+Alt+Tab»).



Baʼzan, bir necha cholgʻularning partiyalarini partituraning ajratib qarash va tahrirlash zarurati paydo boʻlishi mumkin. Masalan, barcha urma-zarbli cholgʻularning partiyalarini partituraning ajratib qarash lozim boʻlishi mumkin. Ushbu vazifani bajarish uchun instrumentlar panelida joylashgan «partiyalar» (📄) tugmasi bosiladi. Taqdim etiladigan «Parts» oynasidagi «Yangi partiya» (📄) belgisi bosilsa, «New part» oynasi ochiladi (rasmga qarang). Oynaning chap tomonida partituraning cholgʻular roʻyxati («Staves available») aks ettiriladi. Ushbu roʻyxatdan kerakli cholgʻu tanlab olinib (1), «Add to part» tugmasi (2) bosiladi. Shunda belgilangan cholgʻu nomi oynaning oʻng tomonidagi roʻyxatga siljiriladi. Barcha kerakli cholgʻular oʻng tomondagi roʻyxatga siljirilganidan soʻng «OK» tugmasi (3) bosilsa, tanlangan cholgʻulardan yigʻilgan yangi partiya – partiyalarini partituraning ajratib qarash va tahrirlash roʻyxatida paydo boʻladi:



1. 7- va 8-mashqni bajaring.

NOTA HUJJATI BILAN ISHLASHGA OID BA'ZI TAVSIYALAR


Biz Sibeliyus dasturida ishlashning asosiy prinsiplari bilan tanishib chiqdik. Umuman olganda, dasturda nota matnini terishga oid barcha ishlarni bajarish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Albatta, buning uchun dastur foydalanuvchisi yetarli tajriba va malakaga ega bo'lishi zarur. Mazkur qo'llanma esa foydalanuvchi o'z vaqtini behuda tajribalarga sarflamasdan, Sibeliyusning har ikki versiyasining imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari, o'xshash va farqli jihatlari haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi uchun poydevor vazifasini o'tashi mumkin. Musiqa asarlarining nota hujjatlarini tayyorlashga jazm etgan har bir inson ushbu qo'llanmadan unumli foydalangan holda o'qish, o'rganish, amaliy ko'nikma va tajriba orttirishga yetarli vaqt ajratsa, mahorat bobida, boshqa amaliy dasturlardagi kabi, benazir bo'lishi shubhasiz.

Quyida esa nota hujjatini zarur ko'rinishda chop etish, partiturağa nota chiziq-lari bo'lmagan cholg'ularni qo'shish borasidagi tavsiyalarni keltirib o'tishni lozim topdik.


Sahifalar raqamlanishini o'zgartirish. Dasturning har ikki versiyasida sahifalarning raqamlanishi avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda nota hujjati sahifalarini qayta raqamlash yoki sahifalar raqamlanmagan holda taqdim etilishi talab qilinishi mumkin.

Mazkur vazifani bajarish dasturning qarab chiqilgan ikki versiyasida bir-biridan biroz farq qiladi.

Sibelius 4 versiyasida sahifalarning raqamlanishini tahrirlash uchun «Engraving Rules»⁸ buyrug'i yordamida taqdim etiladigan oynadagi ro'yxatdan «Page Numbers» (sahifalarning raqamlanishi) varianti (1) tanlanadi (rasmga qarang). Ro'yxatning o'ng tomonida taqdim etiladigan «First page number» (birinchi sahifa raqami) maydoniga (2) nota hujjati birinchi sahifasining raqami kiritiladi. Agarda sahifalar raqamlanishi aks ettirilishi lozim bo'lmasa «Show page numbers» (sahifalar raqamlanishini aks ettirish) maydonidagi (3) bayroqcha olib tashlanadi. Agarda birinchi sahifa raqami ham aks ettirilishi lozim bo'lsa «Show on first page» (birinchi sahifa raqamlanishining aks ettirilishi) maydoniga (4) bayroqcha o'rnatiladi. «Edit Text Style» (matn stilini tahrirlash) tugmasini (5) bosish orqali taqdim etiladigan oynadan foydalanib nota hujjati sahifalari raqamlarning shrift parametrlarini sozlash mumkin.




⁸ «House style» menyusida joylashgan.




sahifalarning raqamlanishini tahrirlash uchun «Create» menyusidagi «Other» menyu-buyrug‘ining «Page Number Change...» (sahifalar raqamlanishini o‘zgartirish) buyrug‘i tanlanishi lozim. Taqdim etiladigan oynada «New page number» maydoniga bayroqcha

o‘rnatilishi, nota hujjati birinchi sahifasining raqami ko‘rsatilishi (1) va raqamlar formati tanlab olinishi mumkin. Sahifalar raqamlarining aks ettirilish yoki ettirilmasligi quyidagi variantlardan birini tanlash orqali belgilanadi (2): «Show page numbers» (Sahifalar raqamlanishining aks ettirilishi); «Hide first page number» (Birinchi sahifa raqamlanishining aks ettirilmasligi); «Hide page numbers» (Sahifalar raqamlanishining aks ettirilmasligi); «Hide page numbers until after next page of music» (Ushbu sahifadan keyingi sahifalar raqamlanishining aks ettirilmasligi).

Ushbu oynada kerakli belgilashlar amalga oshirilib, «OK» tugmasi bosilganidan so‘ng, sichqoncha ko‘rsatkichini sahifalarning raqamlanishi aks ettiriladigan joyga olib borish va o‘ng tugmasini bosish lozim bo‘ladi.



Partituraga nota chiziqdari bo‘lmagan cholg‘ularni qo‘shish. Nota hujjatlarida ba‘zi cholg‘ularning partiyalari chiziqsiz nota qatorlariga yozilishi talab etiladi. Ushbu vazifani Sibelius 4 va Sibelius 6 versiyalarida bajarishda ham biroz farqlanish mavjud.




Sibelius 4 versiyasida ushbu vazifa «Xususiyatlar» panelining «Staves» (nota qatorlari) bo‘limidan foydalanib bajariladi. Bu bo‘limda taqdim etiladigan ro‘yxatdan nota qatorlarining turli ko‘rinishlari (standart, deyarli barcha damli va urma-zarbli cholg‘ularga mos keluvchi nota qatorlari va boshqa tuzilishdagi nota qatori chiziqlari) o‘rin olgan. Mazkur ro‘yxat nota hujjatining biror-bir nota qatori faol bo‘lgan hollardagina faollashadi. Shu sababli, avvalambor, nota chiziqlari o‘zgartiriladigan bitta nota qatori faollashtirilishi yoki belgilab olinishi zarur. So‘ngra ro‘yxatdan kerakli (masalan, «No lines (hidden)» – nota qatori chizig‘isiz (cholg‘u nomi yozuvi, nota va takt chiziqlari, kalitlar hamda to‘liq pauzali taktlari yashirilgan)) variant tanlanadi (rasmga qarang). «No lines (barlines shown)» varianti tanlanganda nota qatori chizig‘isiz (nota chiziqlari va pauzali taktlari yashirilgan hamda cholg‘u nomi yozuvi, takt chiziqlari, kalitlar aks ettiriladigan), «No lines (bar rests shown)» – nota qatori chizig‘isiz (nota va takt chiziqlari, cholg‘u nomi yozuvi yashirilgan hamda kalitlar va pauzalari aks ettiriladigan) ko‘rinishga o‘zgartiriladi. Shu tariqa belgilab olingan nota qatorini turli ko‘rinishlarda tasvirlash mumkin (1 chizikli, 2 chizikli va boshqalar).

Sibelius 6 versiyasida nota qatorlarining ko‘rinishlarini bevosita o‘zgartirib bo‘lmaydi. Shu sababli kerakli ko‘rinishdagi nota qatorini partituraga «Instruments»⁹ oynasidagi «Instrument» ro‘yxatidan foydalanib kiritib olish zarur bo‘ladi. Bunda, partituraga ma’lum sondagi nota chiziqlariga ega cholg‘u kiritilishi uchun «Unnamed» (nota chiziqlari soni qavs ichida ko‘rsatiladi) variantlaridan biri tanlanadi (masalan, «2 lines», rasmga qarang). Partituraga nota chiziqlari bo‘lmagan nota qatorini qo‘shish uchun «Instruments» oynasida «All instruments» ro‘yxatining «All instruments» varianti, «Family» ro‘yxatining «Others» varianti, «Instrument» ro‘yxatining «No instrument» variantlaridan biri tanlanishi va

⁹ «Create» menyusida (tezkor klavisha «I»).

partitura cholgʻulari roʻyxatiga oʻtkazilishi zarur. Rasmda «No instrument» variantlarining har uchasi tanlanib, partitura cholgʻulari roʻyxatiga qoʻshilishi aks ettirilgan.



Ushbu variantlardan foydalanish natijasida quyidagi koʻrinishlarga ega nota qatorlari hosil qilinadi:

<p>«No instrument (hidden)»¹⁰ Nota qatori chizigʻisiz (cholgʻu nomi yozuvi, nota va takt chiziqlari, kalitlar hamda toʻliq pauzali taktlari yashirilgan)</p>	
<p>«No instrument (barlines shown)» Nota qatori chizigʻisiz (nota chiziqlari va pauzali taktlari yashirilgan hamda cholgʻu nomi yozuvi, takt chiziqlari, kalitlar aks ettiriladigan)</p>	
<p>«No instrument (bar rests shown)» Nota qatori chizigʻisiz (nota va takt chiziqlari, cholgʻu nomi yozuvi yashirilgan hamda kalitlar va pauzalari aks ettiriladigan)</p>	

¹⁰ Sibelius 4 versiyasidagi «No lines (hidden)» variantining muqobili.

DASTURNING ASOSIY BUYRUQLARI VA TEZKOR KLAUVISHALAR

Sibelius dasturining barcha versiyalarida asosiy buyruqlar va ularga mos keluvchi tezkor klavishalar uchun muvofiqlik saqlab qolingan. Ma'lumki tezkor klavishalardan ko'proq foydalanish ishni tezroq bajarilishi uchun xizmat qiladi. Dasturni o'rganuvchilar uning ingliz yoki rus tillaridagi interfeysining biridan foydalanishini e'tiborga olgan holda, quyidagi jadvalda dastur buyruqlarining ingliz, rus va o'zbek tillarida nomlanishi va ularga mos tezkor klavishalar (hamda ularning kombinatsiyalari)ni keltirib o'tishni lozim topdik.

Ingliz	Rus	O'zbek	Tezkor klavishalar (kombinatsiyalari)
File/Файл/Fayl			
New	Новый документ	Yangi hujjat	Ctrl+N
Open	Открыть документ	Hujjatni ochish	Ctrl+O
Close	Закрывать окно, документ	Oynani, hujjatni yopish	Ctrl+F4
Save	Сохранить документ	Hujjatni saqlash	Ctrl+S
Save as	Сохранить как...	Hujjatni boshqa nom bilan yoki formatda saqlash	Ctrl+Shift+S
Print	Печатать документ	Hujjatni chop etish	Ctrl+P
Exit	Выход из программы	Dasturdan chiqish	Alt+F4
Edit/Правка/Tahrirlash			
Undo	Отменить действие	Bajarilgan oxirgi amalni bekor qilish	Ctrl+Z

Redo	Вернуть действие	Bekor qilingan oxirgi amalni joyiga qaytarish	Ctrl+Y
Undo History	Отменить историю действий	Bajarilgan amallarni xronologiya bo'yicha bekor qilish	Ctrl+Shift+Z
Redo History	Вернуть историю действий	Bekor qilingan amallarni xronologiya bo'yicha joyiga qaytarish	Ctrl+Shift+Y
Cut	Вырезать объект	Ob'yektni buferga siljitish	Ctrl+X
Copy	Копировать объект	Ob'yektdan nusxa olish	Ctrl+C
Paste	Вставить объект	Almashuv buferidagi ob'yektni qo'yish	Ctrl+V
	Скопировать и перенести объект	Ob'yektdan nusxa olib, nusxani siljitish	Obektni belgilab, «Alt» klavishasini bosib, sichqonchani ko'rsatkichini ko'chiriladigan joyga olib borib, chap tugmasini bosish zarur
Repeat	Повторить ноту, такт, стан и т.д.	Nota, takt, nota qatori va boshqa ob'yektlarni takroran qaytarish (hujjatning nota matniga kiritish)	R

Delete	Удалить	O'chirib tashlash	Delete, Backspace
Flip	Перевернуть нотный штиль, акцент, линию и т.д.	Nota shtillarini, nota belgilarini to'g'ri (nota yozuvi qoidalariga binoan aks ettirish) yoki teskari ko'rinishga ag'darish (pastga yoki tepaga qaratish)	X
Voice	Голоса 1, 2, 3, 4	1, 2, 3, 4-ovozlarni faollashtirish	Alt+1, Alt+2, Alt+3, Alt+4
Swap	Заменить голос на 1, 2, 3, 4	1, 2, 3, 4-ovozlarning o'rini biridan-boshqasiga almashtirish	Shift+B
Hide or Show	Спрятать или показать объект	Ob'yektni aks ettirish yoki yashirish	Ctrl+Shift+H
Change Chord Diagram	Изменить аккордовую диаграмму	Akkord diagrammasini o'zgartirish	Ctrl+Shift+K
Color	Цвет объекта	Ob'yektning rangini o'zgartirish	Ctrl+J
Reapply Color	Вернуть цвет объекта	Ob'yektning rangini oxirgi marta foydalanilgan rangga o'zgartirish	Ctrl+Shift+J
Select All	Выделить всё	Barchasini belgilash	Ctrl+A

Select More	Выделять постепенно больше	Taktni belgilash	Ctrl+Shift+A
Select System Passage	Выделить пассажи системы	Belgilangan nota cho‘zimidagi vertical bo‘yicha belgilash	Ctrl+Alt+A
Select Graphic	Выделить графику (выделить фрагмент нотного текста, нажать сочетание клавиш «Alt+G», в появившейся рамке выровнять границы, скопировать выделенный фрагмент и вставить его в текстовый или графический редактор)	Grafikani belgilash (nota matni fragmentini belgilab, «Alt+G» tezkor klavishalar kombinatsiyasi bosiladi va paydo bo‘ladigan ramka chegaralari keragicha siljtiladi. So‘ngra ushbu fragmentdan nusxa olib («Ctrl+C»), uni matn yoki grafik muharrirga qo‘yish («Ctrl+V») mumkin)	Alt+G
Find	Поиск объекта	Ob‘yekttni qidirish	Ctrl+F
Find Next	Продолжить поиск	Qidirishni davom ettirish	Ctrl+G
Go to Bar	Переход на такт	Taktga o‘tish	Ctrl+Alt+G
Go to Page	Переход на страницу	Sahifaga o‘tish	Ctrl+Shift+G
Advanced Filter	Расширенный фильтр	Kengaytirilgan filtr	Ctrl+Shift+Alt+F
View/Вид/Ко‘rinish			
Hidden Objects	Скрытые объекты	Yashirilgan ob‘yektlarni aks ettirish	Ctrl+Alt+H
Full Screen	Полноэкранный режим	To‘liq ekran rejimi	Ctrl+U

Zoom	Масштаб	Masshtab	Ctrl +, Ctrl –
Notes/Ноты/Notalar			
Input Notes	Начало ввода нот	Notalarni kiritish rejimiga o'tish (ushbu rejimdan chiqish)	N
Transpose	Транспозиция	Transpozitsiya	Shift+T
Transposing Score	Автоматическая транспозиция инструментов	Cholg'ularning avtomatik transpozitsiyasi	Ctrl+Shift +T
Add Interval	Интервалика, аккорды	Intervallar, akkordlar qo'shish	Yuqoridan – 1-9, Pastdan – Shift+1-9
Add Pitch	Гаммы: А (ля), В (си), С (до), D (ре), E (ми), F (фа), G (соль)	Gammaga o'tish: A (lya), B (si), C (do), D (re), E (mi), F (fa), G (sol)	Yuqoriga – A-G, Pastga (gamma qo'shish) – Shift+A-G
Cross Staff Notes	Переход нот по станам	Notani bir nota qatoridan boshqasiga o'tkazish	Yuqoriga – Ctrl+Shift+↑ Pastga – Ctrl+Shift+↓
Create/Создание/Yaratish			
Bar→At End	Добавление такта в конце	Nota hujjatining oxiriga bitta takt qo'shish	Ctrl+B
Bar→Single	Добавление такта в начале	Joriy taktdan keyin bitta takt qo'shish	Ctrl+Shift+B
Bar→Other	Добавление такта в указанном месте	Joriy taktdan keyin ko'rsatilgan sondagi taktlarni qo'shish	Alt+B

Chord Diagram	Аккордовые диаграммы	Akkordli diagrammalar	Shift+K
Clef	Ключи	Kalitlar	Q
Key Signature	Тональность	Tonallik	K
Line	Линии	Chiziq ob'yektlari	L
Rehearsal Mark	Номерная маркировка	Kuy parchalarini raqamlash	Ctrl+R
Symbol	Символы	Musiqiy belgilar (simvollar)	Z
Time Signature	Размер	Takt o'lchovi	T
Tuplet	Триоли, кварты и т.д.	Triol, kvarta va boshqalar	Ctrl+1-9
Text/Текст/Matn			
Expression	Динамические знаки	Dinamik belgilar	Ctrl+E
Technique	Технические знаки	Texnik ko'rsatmalar	Ctrl+T
Lyrics line 1 (Lyrics→Lyrics line 1)	Слова вокальной партии	Vokal partiyasining matnosti so'zlari	Ctrl+L
Lyrics line 2 (Lyrics→Lyrics line 2)	Вторая строка слов вокальной партии	Vokal partiyasi 2-ovozining matnosti so'zlari	Ctrl+Alt+L
Chord symbol	Аккордовые обозначения	Akkordli simvollarning ifodalanishi	Ctrl+K
Tempo	Темп	Temp ifodalari	Ctrl+Alt+T
Play/Исполнение, игра/Ijro etib berish			
Play or Stop	Игра/стоп	Ijro etish yoki to'xtash	Probel

Replay	Повтор	Qayta ijro etib berish	Ctrl+Probel
Play from Selection	Исполнение выделенного	Belgilangan joydan boshlab ijro etib berish	P
Live Playback	Живое исполнение	Jonli ijro	Shift+L
Transform Live Playback	Изменение живого исполнения	Jonli ijroni o'zgartirish	Ctrl+Shift+Alt+L
Layout/Настройка/Sozlash			
Instruments and Staves	Инструменты и станы	Cholg'ular va nota qatorlari	I
Focus on Staves	Внимание на выделенный стан	Belgilangan nota qatorlari partiyalarini partituranidan ajratib qarash va tahrirlash	Ctrl+Alt+F
Document Setup	Опции документа	Nota hujjatining sahifa parametrlari	Ctrl+D
Hide Empty Staves	Спрятать нотный стан	Nota qatorini yashirish	Ctrl+Shift+Alt+H
Show Empty Staves	Показать нотный стан	Nota qatorini aks ettirish	Ctrl+Shift+Alt+S
System Break	Разрыв системы	Tizim bo'yicha ajratish	Enter
Page Break	Разрыв страницы	Sahifa bo'yicha ajratish	Ctrl+Enter

House Style/Свой стиль (домашний)/Uy stili			
Engraving Rules	Правила оформления	Nota hujjati bezaklarini (tarkibiy elementlarini) aks ettirilishi qoidalari	Ctrl+Shift+E
Window/Окно/Оуна			
Navigator	Навигатор	Navigator	Ctrl+Alt+N
Keypad	Клавиатура	Nota belgilari paneli	Ctrl+Alt+K
Playback	Проигрыватель	Ijro etib berish paneli	Ctrl+Alt+Y
Mixer	Микшер	Miksher paneli	Ctrl+Alt+M
Video	Видео	Video paneli	Ctrl+Alt+V
Properties	Свойства	Xususiyatlar paneli	Ctrl+Alt+P
Hide Tool Windows	Спрятать все окна	Barcha siljiriladigan panellarni yopish	Ctrl+Alt+X
Switch to Part	Первая партия	Partiturada belgilangan cholg'uning partiyasini hosil qilish	W
Next Part	Следующая партия	Partitura va partiyalar ro'yxati bo'yicha bundan keyingi partitura yoki partiyani aks ettirish	Ctrl+Alt+Tab

Previous Part	Предыдущая партия	partitura va partiyalar ro‘yxati bo‘yicha bundan oldingi partitura yoki partiyani aks ettirish	Ctrl+Shift+Alt+Tab
---------------	----------------------	---	--------------------



Test savollariga javob bering (92-bet).

XULOSA

XXI asrni zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan madaniyat va san'atda ham, zamonaviy axborot texnologiyalari taqdim etadigan vositalarning imkoniyatlaridan keng foydaniymoqda. Ushbu texnologiya va vositalar insonning mehnatini yengillashtirishga qaratilgan, ishni bajarilish muddatlarini qisqartirish, mahsuldorligini oshirish, sifatli bo'lishiga xizmat qiladi. Ammo, shu bilan birga jamoaning ishini tez va unumli bajarilishini ta'minlaydigan axborot texnologiyalari va texnik vositalar insonni o'z «qobog'iga» o'rab olmoqda. Ya'ni, inson o'z ishini kompyutersiz bajarishga ojiz bo'lib bormoqda va axborot texnologiyalariga butunlay qaram bo'lib qolmoqda. Hattoki, ijodkorlik, madaniyat va san'at sohalarida ham ushbu vaziyat kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari musiqa san'atida ham o'z o'rnini, qo'llanilish jabhalarini topib bo'ldi. Masalan, ovoz yozish, ovozni qayta ishlash texnologiya va dasturlari, raqamli musuqiy cholg'ular, nota muharrirlari (Encore, Sibelius, Final va boshqalar). Albatta, xonanda, cholg'ular ijrochilari, basrakorlar, pedagoglar va ovoz rejissyorlari uchun ushbu texnologiya va texnik vositalar bilan ishlash ko'nikma va mahoratlarini oshirib borishlari ularga keng imkoniyatlar va qulayliklarni taqdim etmoqda. Shu bilan birga axborot texnologiyalarini qo'llayotgan ijodkor «kompyuter inson uchun, inson kompyuter uchun emas» degan g'oyani esdan chiqarmasligi lozim.

Ushbu fikrimiz asosan talaba va yosh mutaxassislariga tegishli. Chunki ular o'z ijodlarida axborot texnologiyalari va zamonaviy kompyuter dasturlariga bog'lanib qolib, ularsiz mehnat qilishga qiynalmoqdalar. Masalan, nota muharrirlarini o'rganish va ijodiy jarayonda ulardan unumli foydalanish juda zarur, chunki bunda ishning ham sifati ham unumliligi oshadi, talaba nota savodxonligi bo'yicha bilimlarini yanada oshiradi va estetik qarashlarini boyitadi. Shu bilan birga mazkur vositalardan noto'g'ri foydalanish salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Ushbu masalani batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Masalan, kompozitor-talabalar o'z ijodlarida ko'pincha nota muharrirlaridan foydalanmoqdalar. Kompozitorlar – musiqa san'atining eng ilg'or vakillari hisoblanadilar, chunki ular ijodiy mahsulot – musiqa asarlari yaratadilar. Kompozitor musiqani nafaqat eshitadi, balki uni tasavvurida jonlantira olishi ham zarur. Shu sababli yangi musiqa asarining nota matnini yozishda qalam va qog'ozdan foydalangan ma'qul. Nota matnining qo'lyozmasini esa nota muharrirlari yordamida kompyuterga kiritish mumkin. Aynan shu tariqa haqiqiy ijod mevasi yaratiladi. Demak, nota muharrirlari kompozitorning qo'lda yozilgan tayyor asarini raqamli ko'rinishga o'girishi uchun kerak. Lekin, ba'zi kompozitor-talabalar asarlarining nota matnini kompyuterda terishdan boshlaydilar, bu esa ularning ijodkorligiga, qobiliyatlari va fantaziyasiga ko'zga ko'rinmas salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Birinchiidan, nota muharrirlari terilgan notalarning tovushini kompyuter dinamiklaridan chiqarib, raqamli ovozni hosil qiladi. Natijada talabaning eshitish qobiliyati ushbu raqamli tovushlarga moslashib qoladi va haqiqiy musiqa cholg'usining tabiiy tovush chiqarishiga mo'ljalni chalkashtiradi. Nota muharririda musiqa silliq va ravon eshitilsa-da, haqiqiy musiqa cholg'usida boshqacha sadolanishi va kuyning umumiy mavzusini buzib qo'yishi mumkin. Oxir-oqibat tinglovchilarning e'tiboriga musiqa asari emas, balki «yarim tayyor mahsulot» havola etiladi.

Ikkinchiidan, cholg'ushunoslik va musiqa savodxonligi amaliyotiga ham putur yeta boradi. Nota muharrirlarida har bir musiqa cholg'usining tovush chiqarishi bo'yicha chegaralari belgilangan bo'lib, ular mos funksiya yordamida nazorat qilinadi (tovush chiqarish diapazonidan tashqarida bo'lgan notalar qizil rangda aks ettiriladi). Albatta, ushbu funksiya juda qulay va foydali. Biroq, o'z bilim va ko'nikmalariga asoslanmasdan, doimo kompyuterga ishonib ish yuritish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi. Chunki, musiqa savodxonligi va cholg'ushunoslik ko'nikmalari o'z tajriba va amaliyotiga tayangan ijodkor-talabalarda nisbatan rivojlangan bo'ladi.

Uchinchidan, nota muharrirlarida takt o'lovini ko'rsatib, nazorat qilib turuvchi funksiya mavjud. Ushbu funksiya orqali taktdagi nota va pauzalarga ajratilgan hissalarini ko'rib, nazorat qilib turish mumkin. Masalan, $\frac{4}{4}$ o'lovli taktga sakkiztalik nota qo'yilsa, taktdagi qolgan cho'zimlar pauzalar ko'rinishida aks ettiriladi – bittadan sakkiztalik, choraktalik va yarimtalik pauzalar:



Ushbu funksiya musiqa maktablarida boshlang'ich nota savodxonligiga o'rgatishda juda qo'l keladi. Lekin, bu funksiya oliy ta'lim muassasasi kompozitor-talabasining umumiy musiqa savodxonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki o'z ijodini faqat kompyuterda yaratishga ko'nikib qolgan talaba, musiqa asarini qo'lyozma ko'rinishida yozishda juz'iy xatoliklarga yo'l qo'yadi va keyinchalik ko'p vaqtini kamchiliklarni bartaraf etishga sarflaydi. Natijada, musiqa asarining umumiy g'oyasiga putur yetishi mumkin.

Yana bir masala – bu aranjirovka va cholg'ulashtirishdir. Aranjirovka va cholg'ulashtirish ishlari Sibelius nota muharririda osonroq va tezroq bajariladi. Chunki Sibeliusda terilgan notalarni boshqa cholg'ularga moslashtirish va kuyning asosiy mavzusini o'zgartirib, musiqaning umumiy sadolanishini yangicha namoyon etishning alohida funksiyalari mavjud va ushbu jarayon avtomatik ravishda amalga oshirilishi mumkin. Lekin, ushbu funksiyalardan foydalanib, «yangi asar» yaratgan «kompozitor»ni «ijodkor» desak bo'ladimi? Ushbu savolga, albatta, mutaxassislar javob berani ma'qul.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda axborot texnologiyalari va texnik vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi juda zarur va foydali. Ammo, shu bilan birga, kompyuter insonning yordamchisi bo'lib qolishi muhim. Uni inson o'rniga ish bajaruvchi vositaga aylanishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va ularni qo'llash usullarini muvozanatda saqlash o'qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib, ushbu masalaning to'g'ri yechimini topish o'qituvchining tajribasiga, mahoratiga va shaxsiga bog'liq.

GLOSSARIY

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari (AATex) – boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun ilg‘or dasturiy ta‘minot, hisoblash texnikasi va aloqa vositalarigan foydalanib axborotlarni yig‘ish, qayd etish, uzatish, jamlash, qidirish, ishlov berish amallarini bajarish usullari va vositalarining tizimli tashkil qilingan majmuasi.

Adapter – Kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari ishini boshqaruvchi elektron sxema, u kontroller deb ham ataladi.

Akkolada (frans. *accolade, accolader* – qavs bilan bog‘lash) – ikkita yoki undan ortiq nota qatorlarini bog‘laydigan maxsus qavs.



Fortepiano akkoladasi



*Partitura cholg‘ulari
guruhi akkoladasi*

Akkord (ital. *accordo*, frans. *accorde* – rozilik, kelishuv, lot. *accordo* – birdamlik) – uch va undan ortiq tovushlarning bir vaqtda sadolanishi.

Alteratsiya (lot. *alteration* – o‘zgartirish) – musiqa tovushlarining balandligini o‘zgartirish.

Alteratsiya belgilari: # (diez) – yarim ton balandga, * (dubl diez) – bir ton balandga ko‘tarish, b (bemol) – yarim ton pastga, bb (dubl bemol) bir ton pastga tushirish, b (bekar) – kalitdagi belgini yoki bundan oldin kelgan alteratsiya belgisini bekor qilish.

Ansambl (frans. *ensemble* – birgalikda) – 1. Badiiy jamoa, guruh. 2. Ovoz yoki tovushlarning uyg‘unlashuvi. 3. Bir guruh ijrochilar uchun mo‘ljallangan musiqa asari (duet, trio, kvartet va hokazo).

Apparatli texnik vosita – hisoblash texnikasiga bevosita o‘rnatiladigan yoki u bilan ma‘lum interfeys orqali bog‘lanadigan qurilmalar.

Artikulyatsiya (lot. *articulo* – bo‘linish, parchalanish) – nutq harakati unsurlari; ijro etish yoki kuylashda tovush hosil qilish usullari; talaffuzning aniqligi, shtrixlar.

Axborot – (lot. «*information*» so‘zidan olingan) keng qamrovli tushuncha. 1. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ob‘yektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar yoki buyruqlar; 2. Ma‘lum xos matnda aniq ma‘noga ega tushunchalarni o‘z ichiga olgan dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob‘yektlar haqidagi bilimlar majmuasi; 3. Qiziqish uyg‘otishi mumkin bo‘lgan, saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo‘lgan jami dalil va ma‘lumotlar.

Axborot texnologiyasi (AT) – ob‘yekt, jarayon, voqea, hodisa, predmet haqidagi axborotlarni olish, yig‘ish, qayta ishlash va uzatish vosita va usullari jamlanmasidan foydalanib natijaviy axborotlarni taqdim etish jarayoni.

Bastakor (fors.-toj. *basta* – bog‘lash, *kor* – ish) – musiqa asarlarini (tor ma‘noda – an’anaviy uslubda) yaratuvchi ijodkor. Keng ma‘noda – kompozitor.

Bosmaga chiqarish qurilmalari – matn, simvol, tasvirlarni hisoblash mashinasidan qog‘ozga chiqarish qurilmalari (printerlar, plotterlar, grafopostroitellar).

Boshqaruv tizimi – boshqaruv vazifasini amalga oshiruvchi tizim. Ushbu tizim bajaradigan eng muhim vazifalar bashoratlash, rejalashtirish, hisob-kitob, tahlil, nazorat qilish va tartibga solishdan iborat.

Gamma (yunon alifbosining uchinchi harfi) – *tovushqator*, uning muayyan lad (major, minor) tonalligiga bo‘ysunib, tovushlarning bir yoki bir necha oktava hajmida ko‘tarilish yoki pasayish tartibida joylashuvi. Gammalarni ijro etish – cholg‘u ijrochiligi va xonandalik texnikasini, mahoratini o‘stirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tarixda, o‘rta asr nota yozuvida «gamma – γ » yordamida eng pastki tovush, ya‘ni katta oktavadagi «sol» (G) tovushi ko‘rsatilgan.

GRT displeylari – elektron nurli trubkali monitorlarga asoslangan displeylar.

Dasturiy interfeys – hisoblash tizimi doirasida qurilma va dasturlarning o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi vositalar majmuasi.


Dasturiy ta'minot (Software) – hisoblash mashinasi bilan ishlashda foydalaniladigan barcha dasturlar (tizim bilan ishlash dasturlari, amaliy dasturlar, instrumental dasturlar, maxsus dasturlar, foydalanuvchi dasturlari) majmuasi.

Diapazon (yun. *diapason* (*chordon*) – hamma (torlar)dan o'tib) – ovoz, cholg'u, musiqa asaridagi tovush ko'lami (eng pastki va eng yuqori tovushlar oraliq'i).

Dinamika (yun. *dinamis* – kuch) – tovushlarning qattiqligi bo'yicha kuchli-kuchsiz ijrosi. Italyan atamalari bilan belgilanadi: *piano* (*p*) – sekin, kuchsiz, *forte* (*f*) – qattiq, kuchli, *kreshendo* (<) – asta-sekin kuchaytirib, *diminuendo* (>) – asta-sekin pasaytirib.

Egiluvchan magnit disk tashuvchisi – 3.5 dyumli diametrga ega egiluvchan disklar bilan ishlashga mo'ljallangan qurilma.

Fayl – ma'lum bir ma'lumot saqlanuvchi diskning nomlangan sohasi. Faylning asosiy belgilari – nomi, kengaytmasi, hajmi, yaratilgan sanasi, vaqti va boshqa atributlari.

Forshlag (nem. *Vorschlag*, *vor* – oldindan, *schlag* – zarb) – musiqada kuy bezagi (). Ikki qo'shni tovushni birin-ketin juda tez ijro etish.

Foydalanuvchi interfeysi – foydalanuvchining dasturiy yoki elektron hisoblash mashinasi bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi dasturiy va apparat vositalari.

Improvizatsiya, badiha (lot. *improvises* – to'satdan, kutilmagan, tasodifiy) – ijro etish paytida musiqaga turli o'zgartirishlar kiritib talqin qilish. Musiqa ijrochiligi va musiqa bastalashning eng qadimiy ko'rinishi bo'lib, nota tizimi yaratilishidan avval, og'zaki an'anadagi ijrochilikda muhim o'ringa ega bo'lgan va hozirgi zamon jaz san'atida qo'llanilib kelmoqda.

Informatika – texnik vositalar yordamida axborotning xossalarini, uni ifodalash, qayta ishlash va uzatish usullarini o'rganuvchi fanlar majmuasi.

Informatsion tarmoq – foydalanuvchilar so'rovlariga mos tarzda ma'lumotlarni taqdim etuvchi, yirik hajmdagi ma'lumotlar omboriga ega tarmoq.

Interval (lot. *intervallum* – oraliq, masofa) – musiqada ikki tovush oralig‘i. Tovushlar ketma-ket kelganida *melodik*, bir vaqtning o‘zida sadolanganida *garmonik* intervallarni tashkil etadi. Asosiy intervallar – *prima*, *sekunda*, *tersiya*, *kvarta*, *kvinta*, *seksta*, *septima*, *oktava*. Ular tuzilishiga ko‘ra – *sof*, *kichik*, *katta*, *orttirilgan*, *kamaytirilgan* bo‘lishi mumkin. Intervallar mavzusi, ularning turlari, tuzilishi, aylanmalari, diatonik, engarmonik, dissonans, konsonansligi musiqa fanining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Prima Sekunda Tersiya Kvarta Kvinta Seksta Septima Oktava



Ishchi stansiyalar – muayyan turdagi (grafik, muhandislik, nashriyot va boshqalar) ishlarni bajarishga ixtisoslashtirilgan bir kishi foydalanadigan elektron hisoblash mashinalari.

Janr (frans. *genre*, lot. *genus* – tur, xil, urug‘) – musiqa asarining turini ifodalovchi ko‘p ma‘noga ega tushuncha. Masalan, musiqali drama, opera, balet, simfoniya, kvartet, kvintet, romans, estrada musiqasi janrlari va boshqalar.

Kalit (frans. *clef*, ingl. *key*, nem. *Schlüssel*, rus. *klyuch*) – nota qatoriga qo‘yiladigan va notalarning past-balandligini aniqlab beruvchi maxsus belgi.

	Skripka kaliti		Alt kaliti
	Tenor kaliti		Bas kaliti

Katalog – diskda fayllarning nomi, hajmi, yozilgan vaqti kabi atributlarini saqlovchi maxsus joy, fayllar va ichki kataloglar majmuasi (papka).

Kibernetika – boshqaruv haqidagi fan; texnik, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turli tizimlarda boshqaruv usullari, modellari, algoritmlari bilan shug‘ullanuvchi fan.

Klaviatura – (nem. *klaviatur*, lot. *clavis* – kalit) – ma’lum bir tartibda joylashgan klavishalar tizimi. Sonli, matnli va boshqaruv axborotlarini shaxsiy kompyuterga qo’lda kiritish uchun mo’ljallangan qurilma.

Kompozitor (lot. *compositor* – tuzuvchi, ijod etuvchi) – musiqa asari muallifi, yaratuvchi ijodkor. Kompozitorlik mutaxassisligi musiqiy-ijodkorlik borasida iste’dodga ega va kompozitsiya bo’yicha maxsus ta’lim olgan bo’lishni talab etadi.

Kompyuter (ingl. *to compute, computer* so‘zlarining hosilasi – hisoblash, hisoblagich) – hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritim bo’yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo’ljallangan elektron hisoblash mashinasi.

LCD displeylar – suyuq kristall ekranli ommabop monitorlar.

Magnit disk qurilma – magnit yozuvi asosida ma’lumot saqlaydigan tashuvchi.

Ma’lumotlarni aks ettirish – ma’lumotlarni inson qabul qilishi uchun yaroqli ko‘rinishda taqdim etish.


Mikroprotsessorning interfeys tizimi – shaxsiy kompyuterning boshqa qurilmalarini mikroprotsessori bilan bog‘lanishi va aloqasini ta’minlovchi tizim.

Multimedia vositalari – insonga o‘zi uchun qulay muhit: tovush, video, grafika, matnlar va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuasi.

Musiqa savodi – musiqa haqida umumiy tushunchalar va ta’lim muassasalarida o‘rgatiladigan boshlang‘ich musiqiy-nazariy kurs (nazariy va amaliy mashg‘ulotlar).

Musiqa ta’limi – tizimlashgan musiqiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi (majmuasi), shuningdek, musiqa o‘quv yurtlari ta’lim tizimi: umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Nota (lot. *nota* – belgi) – musiqa tovushlarining yozma belgisi. Notalar tovushning *cho‘zimi* (♩ – butun, ♪ – yarim, ♫ – chorak, ♮ – nimchorak, ♯ – o‘n olitalik va boshqalar), *balandligi* (nota qatori chiziqlarida joylashishi)ni ko‘rsatadi va umum qabul qilingan *nomlariga* ega (*do, re, mi, fa, sol, lya, si*). «Nota» – musiqa asarlari daftari, kitobi, to‘plami.



Nota shtili (yun. *stylos* – tayoqcha) – notalarning chap yoki o‘ng yonidan pastga yoki yuqoriga qaratib qo‘yiladigan chiziqcha. Nota cho‘zimiga qarab shtil yonida mos sondagi bayroqchalar ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Operatsion tizim (OT) – elektron hisoblash mashinasi resurslarini boshqarish, amaliy dasturlarni chaqirish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o‘zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta‘minlovchi dasturiy vositalar jamlanmasi.

Optik qurilmalar – ma‘lumotlarni lazer nuri yordamida yozadigan qurilmalar.

Orkestr (yun. *orchestra* – sahnaning old maydonchasi) – turli cholg‘ularda ijro etuvchi sozandalardan tashkil topgan katta jamoa (simfonik, kamer, damli, xalq cholg‘ulari, estrada orkestrlari).

Ovoz – ovoz chiqarish organlari (ovoz apparati) yordamida chiqariladigan tovush. Uning shaxsiy xususiyatlariga balandligi, kuchi va tusi kiradi.

Partitura (ital. *partitura* – ajratish, taqsimlash) – ko‘povozli musiqa asarining (orkestr, xor, ansambl uchun) nota yozuvi.

Pauza (lot. *pausa*, yun. *pausis* – to‘xtash, tugash) – musiqa asari ijrosida (bir yoki bir necha ovozlarning) muayyan vaqtga to‘xtatilishi hamda usbu vaqt

davomiyligini ko'rsatadigan maxsus belgisi. Pauzalar ko'rinishlari: \blacksquare – butun, \blacksquare – yarim, $\frac{1}{2}$ – chorak, $\frac{1}{4}$ – nimchorak, $\frac{1}{8}$ – o'n oltitalik va boshqalar.



Plazmali panelli monitorlar – katta proeksiya ekranlari sifatida hamda yuqori sifatli uy teatrlari tarkibida ishlatiladigan monitorlar.

Printer – axborotni qog'ozga chop etib beruvchi qurilma.

Raqamli fotokamera – o'z xotirasiga tasvirni sonli formatda yozib qo'yuvchi fotoapparat.

Raqamli hisoblash mashinalari (RHM) – diskret, aniqrog'i raqamli shaklda taqdim etiladigan axborot bilan ishlaydigan hisoblash mashinalari.

Sensor ekranlar – display ekranidan tasvirlar yoki ayrim buyruqlarni bevosita shaxsiy kompyuterga kiritish uchun mo'ljallangan ekranlar.

Serverlar – ma'lumotlar ombori, tarmoqdagi barcha ishchi stansiyalardan jo'natiladigan so'rovlarni qayta ishlash uchun ajratilgan, ko'pchilik bo'lib, jamoaviy foydalaniladigan elektron hisoblash mashinalari.

Shaxsiy kompyuterlar (ShK) – avtonom hamda tarmoq tarkibida faoliyat yuritish imkoniyaniga ega bir kishi foydalanadigan elektron hisoblash mashinalari.

Shtrix (nem. *Strich* – chiziq) – musiqa cholg'ularida tovush chiqarish usuli (*legato, detashe, stakkato, spikkato* va boshqalar).

Skanner – qog'ozli manbalardan matnlar, grafiklar, rasmlar, chizmalarini hisoblash mashinalari va shaxsiy kompyuterga kiritish uchun mo'ljallangan qurilma.

Tabulatura (lot. *tabula* – taxta, jadval) – cholg'u musiqasini harf, raqam va maxsus belgi bilan yozish tizimi (notadan avvalgi tizim).

Takt (frans. *tact*, lot. *tactus* – tegish, his, sezgi) – musiqiy lavha yoki asarning kuchli va kuchsiz hissasiga asoslangan o'lchov birligi va o'ziga xos shakli. Nota yozuvida har bir taktdan so'ng takt chizig'i qo'yilishi mumkin.

Telekommunikatsiya – kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida maʼlumotlarni masofadan uzatish.

Temp, surʼat (ital. *tempo*, lot. *tempus* – vaqt) – musiqa asari ijrosining tezlik darajasi. Nota yozuvida XVII asrdan boshlab italyancha atamalar qabul qilingan. Asosiy surʼatlar, tezlashish tartibida: *grave*, *largo*, *adagio*, *lento* (sekin surʼatlar); *andante*, *moderato* (oʻrtacha surʼatlar); *animato*, *allegro*, *vivo*, *presto* (tez surʼatlar). Surʼatni aniq oʻlchash uchun metronom uskunasi ishlatiladi.

Ton (yun. *tonos* – keskinlik, kuchlanish) – tovushning fizik, psixologik, musiqiy xususiyati. Musiqada ton debganda: ikkita tovushning oraligʻi, masofasi; tovushqator, lad, gamma pogʻonasi; akkord tovushi; kuy, sado, nutq ohangi, boʻyogʻi nazarda tutiladi.

Tonallik – ladning past-balandlik darajasi boʻyicha joylashuvi. Tonlarning munosabati, ogʻishi, dissonans va konsonansligi, turgʻunligi va noturgʻunligi, bularning barchasi asosiy markaz (*tonika*)ga boʻysunganligi zaminida tonallikni bildiradi. Tonallikning koʻrinishi, nomi, kalit belgilari kvinta doirasiga asoslanib belgilanadi.

TV-tyuner – monitor ekranida television koʻrsatuvlarni koʻrib chiqish imkonini beruvchi qurilma.

Videomonitor – shaxsiy kompyuterga kiritilayotgan va undan chiqariladigan axborotni aks ettiruvchi qurilma.

Vokal musiqasi – kuylash uchun moʻljallangan musiqa.

Xonanda – *qoʻshiqchi*, *laparchi*, *ashulachi*, *hofiz* kabilarning umumlashgan tushunchasi.

TESTLAR

1. Sibelius hujjatlari qanday formatga ega:

- a) .doc
- b) .rar
- c) .exe
- d) .sib





2. Sibelius dasturi:

- a) Windows dasturi hisoblanadi
- b) Office dasturi hisoblanadi
- c) O'yin dasturi hisoblanadi
- d) Maxsus dastur hisoblanadi





3. Sibelius dasturi:

- a) Oynalarda ochiladi
- b) Vertikal bo'yicha ochiladi
- c) Gorizontal bo'yicha ochiladi
- d) Yonlamasiga ochiladi

4. Quyidagi belgilardan qaysi biri transpozitsiya belgisi hisoblanadi?

- a) 
- b) 
- c) 
- d) 





5. Barcha partiyalarni alohida oynalarga ajratib chiqarish belgisini ko'rsating:

- a) 
- b) 
- c) 
- d) 

6. Rasmda Sibelius 6 versiyasidagi instrumentlarning siljiriladigan panellari taqdim etilgan. Sibelius 4 versiyasida mavjud bo'lmagan siljiriladigan panellarning belgilarini ko'rsating:







1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12

- a) 1, 3, 5
b) 4, 7, 9
c) 10, 11, 12
d) 5, 6, 7
7. Sibelius 6 dasturining nota belgilari panelining asosiy notalar bo'limiga o'tish uchun qaysi funksional klavishadan foydalaniladi?
- a) F8
b) F7
c) F6
d) F9
8. Sibelius dasturida ish boshlanganida, avvalambor:
- a) Sahifa maketi tanlanadi
b) Cholg'u asboblari tanlanadi
c) Musiqaning takt o'lchovi tanlanadi
d) Kalitlar tanlanadi
9. Ijro etib berish panelidagi qaysi belgi jonli ijro ma'nosini bildiradi?
- a) 
b) 
c) 
d) 
10. Sibelius 6 versiyasida dasturning nota belgilari paneliga qaysi qo'shimcha panel kiritilgan?
- a) Asosiy notalar

- b) Artikulyatsiya
- c) Alteratsiya belgilari
- d) Djaz artikulyatsiyasi

11. Quyidagi belgilardan qaysi biri xususiyatlar paneli belgisi hisoblanadi?

- a) 
- b) 
- c) 
- d) 

12. Sibeliusda cholg‘u asboblari tanlanayotganida nimaga e‘tibor qaratiladi?

- a) Cholg‘u asbobi tembrining balandligiga
- b) Cholg‘u asbobining xiliga
- c) Tonalligiga
- d) Kalitlarga

13. Sibelius dasturida nota hujjatlarini:

- a) Saundtreklar sifatida saqlash mumkin
- b) Grafik tasvirlar ko‘rinishida saqlash mumkin
- c) Videoformatlarda saqlash mumkin
- d) Barcha javoblar to‘g‘ri

14. Sibelius dasturida quyidagi tipdagi fayllarni ochish va saqlab qo‘yish mumkin:

- a) MIDI fayllar
- b) Grafik formatlardagi (rasmlar) fayllari
- c) Videoformatlardagi fayllar
- d) Boshqa nota muharrirlarining fayllari

15. Sibelius dasturida quyidagi formatlardagi fayllarni import hamda eksport qilish mumkin emas:


- a) Audio fayllarni
- b) Grafik formatlardagi (rasmlar) fayllarni
- c) Videoformatlardagi fayllarni

d) Boshqa nota muharrirlarining fayllarini

16. Xususiyatlar panelining qaysi bo'limidan foydalanib taktlarning to'liq pauzalari ko'rinishlarini o'zgartirish mumkin?

- a) Text
- b) Playback
- c) Lines
- d) Bars

17. «Instrumentlar» oynasida tanlangan cholg'u yoki ovozni yaratilayotgan asarga kiritishni amalga oshirish vositasini ko'rsating:



- a) 1
- b) 8
- c) 6
- d) 4

18. Sibelius dasturida yangi nota hujjatini yaratish bosqichlari tartibini ko'rsating:

- a) Instrumentlar → Takt o'lchovi va temp → Stil → Tonallik → Asar haqida ma'lumotlar
- b) Instrumentlar → Asar haqida ma'lumotlar → Stil → Tonallik → Takt o'lchovi va temp

c) Stil→Instrumentlar→ Takt o‘lchovi va temp →Tonallik→ Asar haqida ma’lumotlar

d) Instrumentlar→Stil→ Takt o‘lchovi va temp →Tonallik→ Asar haqida ma’lumotlar

19. Sibelius dasturida dinamik belgilarni matnga kiritish uchun:

a) «Ctrl+E» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

b) «Ctrl+T» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

c) «Ctrl+K» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

d) «Ctrl+L» → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

20. Sibelius dasturida texnik ko‘rsatmalarni matnga kiritish uchun:

a) «Ctrl+E» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

b) «Ctrl+T» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

c) «Ctrl+K» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

d) «Ctrl+L» → ro‘yxatdan kerakli belgi tanlanadi

21. Sibelius dasturida akkordlar ifodalovchi belgilarni kiritish uchun:

a) «Ctrl+E» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli ifoda belgisi tanlanadi

b) «Ctrl+T» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli ifoda belgisi tanlanadi

c) «Ctrl+K» → sichqonchanning o‘ng tugmasi bosiladi → ro‘yxatdan kerakli ifoda belgisi tanlanadi

d) «Ctrl+L» → ro‘yxatdan kerakli ifoda belgisi tanlanadi

22. Sibelius dasturida matnosti soʻzlarini kiritish uchun:

- a) «Ctrl+E» → sichqonchanning oʻng tugmasi bosiladi → roʻyxatdan kerakli belgi tanlanadi
- b) «Ctrl+T» → sichqonchanning oʻng tugmasi bosiladi → roʻyxatdan kerakli belgi tanlanadi
- c) «Ctrl+K» → sichqonchanning oʻng tugmasi bosiladi → roʻyxatdan kerakli belgi tanlanadi
- d) «Ctrl+L» → matn kiritiladi

23. Sibelius dasturida takt oʻlchovni oʻzgartirish uchun:

- a) «T» → kerakli takt oʻlchovi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- b) «K» → kerakli takt oʻlchovi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- c) «Z» → sichqonchanning oʻng tugmasi bosiladi → kerakli takt oʻlchovi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- d) «Ctrl+R» → kerakli takt oʻlchovi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi

24. Sibelius dasturida kalit belgilarini oʻzgartirish uchun:

- a) «T» → kerakli kalit belgisi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- b) «K» → kerakli kalit belgisi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- c) «Z» → sichqonchanning oʻng tugmasi bosiladi → kerakli kalit belgisi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- d) «Ctrl+R» → kerakli kalit belgisi va parametrlar tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi

25. Sibelius dasturida mordent va instrumentlar panelida mavjud boʻlmagan boshqa belgilarni qoʻyish uchun:

- a) «T» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- b) «K» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi

- c) «Z» → sichqonchanning o'ng tugmasi bosiladi → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- d) «Ctrl+R» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi

26. Sibelius dasturida instrumentlar panelida mavjud bo'lmagan maxsus belgilar qanday qo'yiladi:

- a) «T» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- b) «K» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- c) «Z» → sichqonchanning o'ng tugmasi bosiladi → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi
- d) «Ctrl+R» → kerakli belgi tanlanadi → «OK» tugmasi bosiladi

27. Sibelius dasturida butun takt uchun ustki liga qanday qo'yiladi:

- a) Nota belgilanadi → «S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- b) Nota belgilanadi → «Shift+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- c) Nota belgilanadi → «Ctrl+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- d) Nota belgilanadi → «Alt+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi

28. Sibelius dasturida butun takt uchun pastki liga qanday qo'yiladi:

- a) Nota belgilanadi → «S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- b) Nota belgilanadi → «Shift+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- c) Nota belgilanadi → «Ctrl+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi
- d) Nota belgilanadi → «Alt+S» klavishi bosiladi → liga kerakli joygacha tortiladi

29. Mazkur o'quv qo'llanmada nota terishning nechta usuli keltirilgan?

- a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

30. Sibelius dasturining malakali foydalanuvchisi klaviaturadan ko‘proq foydalanadimi yoki sichqonchadan?

a) Klaviaturadan

b) Sichqonchadan

c) Klaviaturadan kamroq, sichqonchadan ko‘proq

d) Klaviaturadan ko‘proq, sichqonchadan kamroq

Test javoblari:

1. d 7. b 13. b 19. a 25. c

2. d 8. a 14. a 20. b 26. c

3. a 9. d 15. c 21. c 27. a

4. b 10. d 16. d 22. d 28. b

5. c 11. a 17. d 23. a 29. c

6. b 12. b 18. d 24. b 30. d

MASHQLAR

Mashq 1. Quyidagi ko‘rinishga ega nota hujjatini yarating.

Symphony in G minor
I

Allegro J.S.Bach

2 Oboe

8

Ob.

15

Ob.

22

Ob.

Detailed description: This block shows the first seven measures of the Oboe parts for the first movement of J.S. Bach's Symphony in G minor. The tempo is marked 'Allegro'. The score consists of four staves, each labeled 'Ob.'. The first staff is labeled '2 Oboe'. All staves contain whole rests for measures 1 through 7. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is common time (C).

Mashq 2. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

Symphony in G minor
I

Allegro J.S.Bach

2 Oboe

4

Ob.

8

Ob.

12

Ob.

15

Ob.

Detailed description: This block shows the first fifteen measures of the Oboe parts. The tempo is 'Allegro'. The first staff is labeled '2 Oboe' and contains measures 1-3. Measure 1 starts with a dynamic of *ff* and an *a2* marking. Measures 2 and 3 feature sixteenth-note patterns. The second and third staves are labeled 'Ob.' and contain measures 4-7. Measure 4 starts with *ff*. Measures 6 and 7 contain sustained notes with a dynamic of *p*. The fourth and fifth staves are labeled 'Ob.' and contain measures 8-11. Measure 8 starts with *f*. Measures 10 and 11 contain sustained notes with a dynamic of *p*. The sixth and seventh staves are labeled 'Ob.' and contain measures 12-15. Measure 12 starts with *f*. Measures 13-15 contain sustained notes, with a sharp sign (#) appearing in measure 14.

Mashq 3. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

Manti Gaspar

S. Jalil musiqasi
A. Aliqulov doira
uchun moslashtirgan

Andante

The musical score is written for piano in G major (one sharp) and 2/4 time. It is marked 'Andante'. The score consists of four systems of piano accompaniment. The first system begins with a piano (*p*) dynamic, followed by a forte (*f*) dynamic, and then returns to piano (*p*). A 7-measure rest is indicated in the right hand of the second system. The piece features a mix of eighth and sixteenth notes, with some passages involving triplets and slurs. The bass line provides a steady accompaniment with chords and single notes.

Mashq 4. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

Italian Serenade

Vln I

Hugo Wolf

The musical score for Violin I of "Italian Serenade" by Hugo Wolf is presented in ten staves. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 3/8. The score includes various dynamics and articulations:

- Staff 1: *pp*, **3**, **10**
- Staff 2: *p*, *f*, *p*, **3**, **20**
- Staff 3: *dim.*, *pp*, **30**, *tr*
- Staff 4: **40**, *tr*
- Staff 5: *rit.*, *a tempo*, **5**, **5**, **50**
- Staff 6: *pp*, **60**, *tr*
- Staff 7: *dim.*, *ppp*, **70**
- Staff 8: *mf*, *f*, *p*, **80**
- Staff 9: *p*, *mf*, *p*, **90**
- Staff 10: *pp*, **100**
- Staff 11: *f*, *pp*, *espress.*, *p*, **110**

Mashq 5. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

N.Narzullayev so‘zi

O'zbek ayoli

F.Zokirov musiqasi

§ *

Qo'l o-cha-di tong-dan du-o - ga,

si - g'i - na-di Ol-loh ta-o-lo - ga, yu-zin cha-yar shab-nam du-o -

ga, u - yal - ti-rar oy-ni ja - mo - li,

Mo-mo - ha-vo o'z-bek a-yo - li. Ko'k-si___ dun-yo o'z-bek a-yo

* 2-kupletni bir oktava balandroq ijro qilinsin.

** 2-kupletda baslarni oktavali jo'pligida chalish lozim.

Mashq 6. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

Kaj ohang suvoriy

K.Devoniy so‘zi

O‘rtacha tempda

tr. *tr.* *tr.*

Qon - ga bot - sin jis - mim ishq o' -

tr. *tr.* *tr.*

- ti - da so' - zon bo'l - ma - sa Ko'r bo'l - sin ko'z

tr. *tr.* *tr.*

ja - mo - ling - ga ni - goh - bon bo'l - ma - sa

Tan - din ay - ril - sin bo - shim ko' - - ying - da qur - bon

bo'l - ma - sa Bar - ham o'l - sin jo - nim ul g'am

tr. *tr.* *gliss.*

bir - la to' - fo - n bo'l - ma - sa Har bi - ri to' - fon -

tr. *tr.* *tr.* *tr.*

- ga may - ham an - da bu jon bo'l - ma - sa - yey

tr. *tr.*

jon - ey

tr.

Yig' - la - moq - din ko'z -

Mashq 7. Quyidagi ko‘rinishdagi nota hujjatini yarating va notalarni tering.

Ashula va Raqs

A.Xalnazarov musiqasi

Andante

The musical score is arranged in a standard orchestral format. The instruments listed on the left are: Fleyta (Flute), Klarinet I and II (Clarinets), Valtorna I and II (Trumpets), Truba B (Trumpet B), Trombon (Trombone), Kich. baraban (Small drum), Tarelkalar va K. baraban (Tambourine and Small drum), Komet B I and II (Cornets B), Alt Es I and II (Alto Saxophones), Tenor B I and II (Tenors), Bariton B (Baritone), and Bas I and II (Basses). The score begins with a key signature of two flats and a 6/8 time signature. The tempo is marked 'Andante'. Dynamics include *mp* (mezzo-piano) and *p* (piano). The Flute part has a melodic line starting in the fourth measure. The Clarinet and Trumpet parts have similar melodic lines. The Trombone and Kich. baraban parts play a rhythmic pattern of eighth notes. The Tarelkalar va K. baraban part plays a steady eighth-note accompaniment. The Cornet, Alto Saxophone, Tenor, and Baritone parts play a melodic line. The Bass part plays a steady eighth-note accompaniment.

Izohlar:

- ✓ Nota materiali talabalarning tayyorgarlik darajalariga ko'ra tanlanadi. Yengilroq va aksincha qiyinroq nota materialini tanlash mumkin. Agar talabalar oddiy xor partituralarini yoza olsalar, ularga yirik xorlar partituralari notalarini yozishni taklif qilish zarur. Bunga mos holda nota materiali tanlanadi. Aksincha, talaba berilgan vazifani bajarishga qiynalsa, u holda yengilroq, misol uchun bolalar xorlari partituralari notalarini yozishni taklif etish mumkin va hokazo.

- ✓ Talabalar Sibelius dasturini o'rganish davri mobaynida mustaqil ravishda o'qituvchi tomonidan berilgan katta nota asarining partiturasini tayyotlashlari lozim va oraliq nazoratda musiqa asarining elektron versiyasini taqdim etishlari va nazorat savollariga javob berishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Антонов Л. Реставрация грамзаписей//«Юный техник», № 2. –М., 1996.
2. Светличный С. Консервированная музыка//«Звукорежиссёр», № 5. –М. 1990.
3. Умуров Н.К. Нотный редактор SIBELIUS 1.1 (структура, возможности и использование). –Т., 2008.
4. Умуров Н.К. Нотные редакторы SIBELIUS-4, SIBELIUS-6 (возможности и сравнительный анализ двух версий программы SIBELIUS). –Т., 2015.
5. «Sibelius» dasturining elektron ma’lumotnomasi. 4.0., 6.2. versiyalari. Sibelius Software Limited (2007-2010).
6. WWW.avid.com
7. WWW.sibelius.com
8. WWW.sibeliusmusic.com